Musiqaning fan sifatida rivojlanishi ta'limda va musiqa san'atini takomillashib borishi bilan bevosita bog'liqdir. Shular bilan birgalikda musiqa tarbiyasi metodikasi umumiy tamoyillarni ilgari suradi. Bular ongliklik, badiiy va tehnik rivojlanish tamoyillariga ega. Bu tamoyillar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, musiqaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, badiiylikni tarbiyalashga qaratilgandir.

Musiqa asarini ongli idrok etish asar mazmunini ochishda va o'quvchilarga musiqiy tajribalarni to'plashda, ularning ma'naviy dunyosini boyitishda yordam beradi. Musiqa tarbiyasi tinglanadigan asarni to'g'ri baholay olish imkoniyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarning musiqiy qiziqishida didlari tarbiyalab boriladi. Badiiy va tehnik bosqichlari asarning badiiy va ifodali ijro etish uchun malakali kadrlar talab etadi, o'quvchilarning kuylash malakalarini egallashlariga e'tibor beradi. O'quvchilarga musiqaning rivojlanish bosqichlari to'grisidagi tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatlarining rivojlantirilishi natijasida ular musiqiy nutq elementlari ifodaliligi keng tushunchalarini ham bilib olishadi.

Musiqiy tarbiya metodikasi tarbiya jarayonida ko'pgina omillarga bog'liq ekanligini e'tirof etadi. Kishilarning musiqiy madaniyati faqatgina maktabning ta'siri ostidagina shakllanmaydi. Unda albatta, tevarak-atrof, ommaviy axborot vositalari yaxlit xildagi ijtimoiy vositalar tizimi ham katta rol o'ynaydi. Musiqa tarbiyasi metodikasi ta'lim metodlarini tanlashda ham pedagogika ravnaqi metodlarini ishlab chiqish quyidagi muammolar, jumladan:

1. Metodlarning musiqa tarbiyasi, mazmunini sinovi, ijro bog'liqligi;
2. O'quvchilarda musiqiy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi;
3. Musiqiy qobiliyat va ovozning rivojlanishi, musiqani idrok etishning yosh va yakka tartibdagi xususiyatlari;

4. O'quvchilarning rivojlanishida musiqiy faoliyatlarning turli shakllarda foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqligi.

Musiqqa metodikasining vazifalariga esa o'quv tarbiya jarayonini turlicha shakllantirish yanada rivojlantirish musiqqa darslaridan tashqari musiqqa mashg'ulotlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlari, to'garaklar, bayramlar, ko'ngil ochish kechalari kiradi.

Musiqqa tarbiyasi metodikasi musiqqa faniga yaqin bo'lgan adabiyot va tasviriy san'at, tarix bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Bu esa o'quvchilarning tarbiyasini har tomonlama samarali amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Musiqqa ta'lim tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda dars yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, o'quvchilarning ommaviy tarzda jalb etilishi maktabda musiqqa fani boshqa fanlardan o'zining badiiyligi va qiziqarliligi, zavq-shavq uyg'otishi bilan ajralib turadi. Eng muhimi musiqqa bolalarning aqliy, axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa aqlni peshlab, tafakkurni charxlaydi. Musiqqa darslari va mashg'ulotlarda o'quvchilar tarbiya va milliy madaniyatimizni o'rganib, bilim saviyasini kuchaytirib borishni egallaydi.

Bobokalonlardan Abu Nasr Al-Forobiyning ma'rifatparvarlik g'oyalar tizimida bola, shaxsni tarbiyalashda musiqqa san'atining maqsadi va vazifalari alohida e'tirof etiladi. Unda inson hayotida musiqaning jamiyatda qayd qilinib, "Ey musiqqa olami, yaxshiyamki sen borsan, agar sen bo'lmaganda insonning ahvoli ne kechar edi"- deya xitob qilinadi. Alloma Abu Ali Ibn Sinoning musiqiy-ma'rifiy qarashlarida ham musiqqa shaxsning ma'naviy va jismoniy-madaniy tabiatiga ta'sir etuvchi qudratli vosita sifatida ta'rif beradi.

Xulosa qilib aytganda musiqqa fani o'qituvchisi yuqorida keltirilgan talablarga to'la amal qilsa, kelajakda ijobiy natijalarga erishadi va ushbu natijalar yosh avlodni ma'naviy shakllantirishda katta yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. F.G Nurullayev, Firdavs To'xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar

2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#). International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar
4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O 'zbek Folklorining O 'rni Va Ahamiyati- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#), Confrencea - Virtual International Conferences, "International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education." [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)
6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024, Conferencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG'U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL| PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO'GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ| INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL_](#). Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich [.O'QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI](#). [Vol. 75 No. 1 \(2025\): PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-75 | ISSUE-1](#).
10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO 'SHIQLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI](#). International Conference on

Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://conferencea.org> January 30th, 2024

11. Rustamov Feruz Tavakkal o'g'li, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/863>
12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O'Quvchilarni Ma'naviy-Axloqiy Shakllantirishda O'zbek Xalq Qo'Shiqlari Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals. Published: 2023-12-06
14. X.M.Ashurmuxamadovna, N.F.Gaybulloyevich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(4), 14-19. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H., Nurullayev F.G. O'ZBEK FOLKLOR QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. Inter education & global study 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O 'ZBEK ESTRADA SAN'ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O 'RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitara Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. 2022/11/29 Vol.9, 422-427
19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. 2022/11/24. Vol 12. 189-193

20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications» 2022.Vol 24,№ 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI.Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)2022 Special issue,130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»
22. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)
23. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
24. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
25. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
26. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
27. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
28. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
29. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
30. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

IOT (INTERNET OF THINGS) QURILMALARI XAVFSIZLIGI: ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Komiljon Baxromov Muzaffar o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi.

komiljonbakhromov@gmail.com

IoT - bu Internet jihozlari deb ataladigan maxsus qurilmalar tarmog'ini bo'lib, Internet yoki boshqa tarmoqlarda real ma'lumotlarni to'plash va almashish uchun ishlatiladi. Amaldagi ushbu texnologiyaga misollar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

IoT qurilmalari tarmoqqa simsiz ulanadigan va ma'lumotlarni uzatish qobiliyatiga ega bo'lgan nostandart hisoblash qurilmalari, masalan, internet jihozlaridagi (IoT) ko'plab qurilmalardir. IoT Internetga ulanishni ish stoli kompyuterlar, noutbuklar, smartfonlar va planshetlar kabi standart qurilmalardan tashqari, an'anaviy yoki internetga ulanmagan jismoniy qurilmalar va kundalik obyektlarning istalgan diapazoniga kengaytirishni o'z ichiga oladi. Texnologiya bilan o'rnatilgan ushbu qurilmalar internet orqali muloqot qilishi va o'zaro ta'sir qilishi mumkin. Ularni masofadan turib kuzatish va boshqarish ham mumkin.

Narsalar interneti yoki IoT - bu boshqa IoT qurilmalari va bulut bilan ulanadigan va ma'lumotlarni almashadigan o'zaro bog'liq qurilmalar tarmog'idir. IoT qurilmalari odatda sensorlar va dasturiy ta'minot kabi texnologiyalar bilan o'rnatilgan bo'lib, ular mexanik va raqamli mashinalar va iste'molchi ob'ektlarini o'z ichiga olishi mumkin. IoT ekotizimi o'z muhitidan olingan ma'lumotlarni yig'ish, jo'natish va ularga amal qilish uchun protsessorlar, sensorlar va aloqa apparatlari kabi o'rnatilgan tizimlardan foydalanadigan veb-qobiliyatli aqlli qurilmalardan iborat.

IoT texnologiyalari (Internet of Things) bizning kundalik hayotimizga tobora kirib bormoqda. Aqlli uyalar, salomatlikni monitor qiladigan gadjetlar va shahar infrastrukturasini boshqarish tizimlari kabi sohalar IoT orqali sezilarli darajada rivoj topmoqda. Biroq, IoT

qurilmalarining ko'payishi bilan ularning xavfsizligiga bo'lgan tahdidlar ham ortib bormoqda. Bu maqola IoT qurilmalari xavfsizligiga qarshi kurashish usullarini va bu borada sun'iy idrokdan (AI) foydalanishning yangi imkoniyatlarini o'rganadi. IoTni kiber hujumlardan himoya qilish uchun turli xavfsizlik protokollari, jumladan zarur shifrlash algoritmlarini va fiziki xavfsizlik texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. IoT qurilmalar uchun xavfsizlik choralarini amalga oshirishda shu jumladan end-to-end shifrlash, autentifikatsiya mexanizmlari va zararli trafikni aniqlash tizimlarini qo'llash zarurligidan tashqari, bu jarayonda qurilmaning samaradorligini pasaytirmaslik ham inobatga olinadi. Xavfsizlik tahlillari va sinovlarini o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklar IoT qurilmalarining dasturiy ta'minoti yangilanishlari va qattiq disk (firmware) takomillashuviga olib keladi. Shu bilan birga, IoT tarmoqlarini boshqarishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, bu tarmoqlarni ta'qib qilishni qiyinlashtiradi va ularda yuz beradigan ma'lumot almashtirish jarayonini xavfsiz va shaffof qiladi. Shundan tashqari, IoTni yanada xavfsiz qilish uchun sun'iy idrok algoritmlari va mashinaviy o'rganish yondashuvlaridan foydalanish tavsiya etiladi. AI tahlil qilish algoritmlari yordamida IoT qurilmalaridan yig'ilgan katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu yondashuvlar xavfsizlik tizimlariga anomal oqimlar yoki noo'rin faoliyat belgilari paydo bo'lishi bilan darhol munosabat qaytarish imkonini beradi, bu esa tavakkalchilikni sezilarli darajada kamaytiradi.

IoT qurilmalari. IoT yuziga ulanish orqali yig'ilgan sensor ma'lumotlarini baham ko'radi, u IoT qurilmalari ma'lumotlarni yuborishi mumkin bo'lgan markaziy markaz vazifasini bajaradi. Ma'lumotlar almashishdan oldin, u ma'lumotlar mahalliy tahlil qilinadigan chekka qurilmaga ham yuborilishi mumkin.

Mahalliy ma'lumotlarni tahlil qilish bulutga yuborilgan ma'lumotlar hajmini kamaytiradi, bu esa tarmoqli kengligi sarfini kamaytiradi. Ba'zan, bu qurilmalar boshqa tegishli qurilmalar bilan bog'lanadi va bir-biridan olingan ma'lumotlar asosida ishlaydi. Qurilmalar ishning katta qismini inson aralashuvisiz bajaradi, garchi odamlar qurilmalar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin, masalan, ularni sozlash, ularga ko'rsatmalar berish yoki ma'lumotlarga kirish. IoT ning qo'llanilishi. Narsalar interneti tashkilotlarga bir qancha afzalliklarni beradi. Ba'zi imtiyozlar sanoatga xos, ba'zilari esa bir nechta sohalarda qo'llaniladi.

Raqamli texnologiyalar rivoji bilan Internet of Things (IoT) □ narsalar interneti tushunchasi kundalik hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Aqlli uy qurilmalari, sanoat uskunalari, tibbiyot moslamalari va boshqa turli IoT tizimlari orqali qurilmalar o□zaro ma'lumot almashmoqda va boshqarilmoqda. Biroq ushbu texnologiyalarning keng qo□llanilishi bilan birga, ularning xavfsizligi bo□yicha muammolar ham dolzarb bo□lib bormoqda.

Ko□plab IoT qurilmalari sodda yoki standart parollar bilan ishlaydi, bu esa ular uchun oson nishonga aylanishiga sabab bo□ladi. Bundan tashqari, ma'lumotlar shifrlanmagan holda uzatilishi xavfni yanada kuchaytiradi.

Ba'zi qurilmalar dasturiy jihatdan to□liq sinovdan o□tkazilmasdan bozorga chiqariladi. Bu esa xatoliklar va zaifliklarning ko□pligiga olib keladi.

Ko□plab IoT qurilmalari xavfsizlik yamoqlari yoki dasturiy ta'minot yangilanishlarini qo□llab-quvvatlamaydi. Bu esa ular bir marta zaif holatga tushsa, doimiy tahdid ostida qolishini anglatadi.

Aqlli qurilmalar odatda bitta tarmoqda faoliyat yuritadi. Bitta qurilma buzilgan taqdirda, boshqa qurilmalar ham xavf ostiga tushadi.

Ko□plab IoT tizimlari foydalanuvchi ma'lumotlarini yig□adi, ammo ularni qanday saqlashi yoki uchinchi tomon bilan baham ko□rishi borasida shaffoflik yetarli emas.

1. Kuchli autentifikatsiya va shifrlash algoritmlarini joriy etish. Har bir qurilmada noyob parollar, ikki bosqichli autentifikatsiya va zamonaviy shifrlash texnologiyalarini tatbiq etish talab qilinadi.

2. Dasturiy ta'minotni doimiy yangilab boorish. IoT qurilmalari ishlab chiqaruvchilari muntazam xavfsizlik yamoqlari va yangilanishlar bilan ta'minlashi zarur. Avtomatik yangilanish tizimlari bu borada samarali vosita bo□la oladi.

3. Tarmoqni segmentatsiya qilish. IoT qurilmalari alohida segmentlarda joylashtirilishi, asosiy tarmoqdan ajratilishi kerak. Bu buzilgan qurilmadan boshqa tizimlarga tahdid o□tishining oldini oladi.

4. Xavfsizlik monitoringi va SIEM tizimlari. IoT qurilmalar faoliyatini doimiy monitoring qilish, g \square ayrioddiy xatti-harakatlarni aniqlovchi tizimlarni joriy etish xavfsizlik darajasini oshiradi.

5. Foydalanuvchilarni xabardor qilish va o \square rgatish. Oddiy foydalanuvchilar ham xavfsizlik qoidalariga amal qilishni bilishi lozim. Bu borada kompaniyalar tomonidan foydalanuvchilarga yo \square riqnomalar va ogohlantirishlar berilishi kerak.¹

Xulosa qilib aytganda, IoT qurilmalari hayotimizni osonlashtirsa-da, ular bilan birga kelayotgan xavfsizlik tahdidlariga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy muammolarning barchasini oldindan ko \square rib chiqib, amaliy xavfsizlik choralarini ko \square rish orqali bu texnologiyalardan xavfsiz foydalanish imkonini yaratish mumkin. IoT xavfsizligini ta'minlash \square bu ishlab chiqaruvchi, foydalanuvchi va mutaxassislar o \square rtasidagi hamkorlik natijasida amalga oshiriladigan jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normurodov, A. D., & Rustamov, A. B. (2023). Internet-buyumlar iot afzalliklari va xavfsizlik muammolari. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'ri, 1(1).C- 348

2. Uzakov, O. S., Raxmatullayev, D. A., Bekmatov, A. K., & Dilmurodov, Z. D. (2023). Iot Texnologiyalari Xavfsizligida Smart Houselarni mobil qurilmalar yordamida boshqarish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 23(7), 105-107.

3. Raxmatullayev, D. A. (2024). Axborot xavfsizligi sohasida taqsil oladigan talabalarning kebir xavfsizlikni o'qitish metodikasini takomillashtirish. Tadqiqotlar, 30(3), 103-107.

4. Dildora, I. (2023). Axborot xavfsizligini ta'minlashda risklarni boshqarish faoliyati samaradorligining asosiy tavsiflari. In uz-conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 83-86).

¹ Normurodov, A. D., & Rustamov, A. B. (2023). Internet-buyumlar iot afzalliklari va xavfsizlik muammolari. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'ri, 1(1).C- 348

AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI

Ergasheva Umida

Xolboyeva Farangiz

TerDMAU talabalari

vaziraxon.ru@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida **agromarketing tizimining ahamiyati** ochib berilgan. Agrobiznes sohasida marketing strategiyalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, ularning afzalliklari va muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Agromarketing, marketing strategiyasi, qishloq xo'jaligi, bozor, raqobat, iste'molchi, narx, sifat, tarqatish, reklama, brend.

THE IMPORTANCE OF THE AGROMARKETING SYSTEM

Annotation. This article reveals the importance of the agromarketing system in agriculture. The specific features of the application of marketing strategies in the agribusiness sector, their advantages and problems are analyzed.

Keywords: Agromarketing, marketing strategy, agriculture, market, competition, consumer, price, quality, distribution, advertising, brand.

ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ АГРОМАРКЕТИНГА

Аннотация. В данной статье объясняется важность системы агромаркетинга в сельском хозяйстве. Анализируются особенности применения маркетинговых стратегий в агропромышленном комплексе, их преимущества и проблемы.

Ключевые слова: Агромаркетинг, маркетинговая стратегия, сельское хозяйство, рынок, конкуренция, потребитель, цена, качество, дистрибуция, реклама, бренд.

Kirish. Agromarketing deganda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchidan to yakuniy iste'molchigacha ishlab chiqarish va yetkazib berishni tashkil etishga qaratilgan, barcha xo'jalik munosabatlari sub'ektlarining ehtiyojlarini albatta hisobga olgan holda ko'p bosqichli jarayon sifatida tushunamiz. Agromarketing qishloq xo'jaligi marketing tushunchasidan chuqurroq va kengroqdir, chunki u mahsulotni qayta ishlash bosqichidan

tashqari, barcha bosqichlarda xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bosqichidagi boshqaruv jarayonini o'z ichiga.

Agromarketing murakkab tizim bo'lib, o'ziga xos ishlash mexanizmi va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Agromarketingning ishlash mexanizmi axborot ta'minoti tizimini, marketing infratuzilmasini, strategik va operatsion boshqaruv tizimini, tadqiqot tizimini va boshqaruv tizimini birlashtiradi. [1]

Ushbu tizim, shuningdek, huquq va majburiyatlarni taqsimlash, kadrlar boshqaruvini modernizatsiya qilish, kadrlarni tanlash va joylashtirish kabi masalalarni aks ettiruvchi agromarketingni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini shakllantirishni belgilaydi.

Agromarketing tadqiqot tizimi bozor kon'yunkturasi, iste'molchilarning soni va xarid qobiliyati, qishloq xo'jaligi bozorining tuzilishi, sotuvchilar va vositachilar soni, ishlab chiqaruvchilar va ularning tovar-pul-sotish strategiyasi, iste'mol xususiyatlari va tovarlar sifatini oshirish muammolari kabi masalalarni o'rganishni qamrab oladi. Agromarketing agrosanoat takror ishlab chiqarishning har bir bosqichida o'zining rivojlanishi, direktiv va interaktiv funksiyasiga ega. Qishloq xo'jaligi sanoatining ishlab chiqarish dasturlariga va tuzilgan uzoq muddatli savdo arrangementlariga ko'ra agromarketing sotib olish funksiyasini ijtimoiy sektorda qishloq xo'jaligi xomashyosini ishlab chiqarishga, shuningdek, uyushgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga yo'naltirishga intiladi.

Agromarketing o'z sa'y-harakatlarini agrokultural sanoatning ishlab chiqarish dasturlari talablariga javob beradigan birlamchi mahsulotlar va oraliq tovarlarni ta'minlashga qaratadi. Savdo rejalariga muvofiq tovarlarni ixtisoslashgan bozorlarga yetkazib berish sotilgan kvotani taqsimlash, tasniflash va ishga tushirish yordamida amalga oshiriladi. Oziq-ovqat tovarlari bozorini topishdagi rolini hisobga olgan holda, agromarketing qishloq xo'jaligi va agrosanoat ishlab chiqarishni ixtisoslashgan savdo bozorlari va uyushgan iste'mol bilan bog'lashga intiladi.

Korxonada qishloq xo'jaligi marketingini boshqarish tizimi marketing menejmentini tashkil etish, marketingni boshqarish tuzilmasini belgilash va tashkil etish, boshqaruvning turli darajalarida marketingni rejalashtirish va marketing dasturlarini tayyorlash, korxonani rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, marketing nazorati tizimi, korxonada marketing bo'limi faoliyatini baholash, marketing faoliyatida boshqa qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni o'z ichiga oladi. [2]

Xulosa. Agrobiznes korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan marketing strategiyalarini samarali qo'llashga bog'liq. O'zbekistonda agrobiznesni rivojlantirish uchun marketing infratuzilmasini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish zarur. Agromarketingdan foydalanish iqtisodiyotning agrar sohasini bozor munosabatlariga o'tishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida bozorga mos keladigan iqtisodiy boshqaruvning yangi iqtisodiy mexanizmini shakllantirishni talab qildi. Marketing faoliyatida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, agrobiznes korxonalarining ishlab chiqarish va marketing faoliyatining asosiy roli istemolchi tomonidan belgilanishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Предеин Д.Б. Агромаркетинг. – М.: ММИ, 2002. – 248 с.
2. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М., 1991. – 698 с.
3. O'zbekiston Respublikasining Qishloq xo'jaligi vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari.
4. Майкл Портер. Raqobat strategiyasi.
5. Ko'ziyev O., Bozorov A. Marketing asoslari. - T.: "Iqtisodiyot", 2012.
6. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: "Iqtisodiyot", 2018.
7. Internet manbalari (ilmiy jurnallar, konferensiya materiallari, tahliliy hisobotlar va boshqalar).

ЎЗБЕК ВА РУС НАСРИДА БОЛА ОБРАЗИ: ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ

Бўриева Робия Отажоновна; Термиз давлат университети мустақил
изланувчиси

(e-mail: robiyaburiyeva1997@gmail.com)

Илмий раҳбар: ф.ф.ф.д., (PhD), доц. Шофиев Обиджон Бахтиёрович;

Термиз давлат университети биринчи проректори

(e-mail: shofiyev@mail.ru)

***Аннотация:** Ушбу мақолада ўзбек ва рус насрий адабиётида бола образининг тасвири қиёсий таҳлил этилади. Болалар образи орқали ижтимоий воқелик, маънавий қадриятлар ва тарбиявий зоялар қандай ифодалангани таҳлил қилинади. Мақолада ўзбек адабиётидан Гафур Ғуломнинг “Шум бола” ва Абдулла Қаҳҳорнинг “Ўтмишдан эртактлар” асарлари ҳамда рус адабиётидан Лев Толстойнинг “Болалик” ва Антон Чеховнинг “Ванька”, “Уйда” каби асарлари таҳлил этилади. Асосий эътибор бола образи орқали тарихи-маданий муҳит акс эттирилиши, эстетик ва фалсафий зояларнинг шаклланиши, ҳамда ижтимоий-тарбиявий вазифаларнинг амалга ошишига қаратилади. Қиёсий таҳлил натижасида икки адабиётда бола образи орқали инсон ҳаёти, жамият ва тарбия масалалари қандай акс этгани очиқ берилади.*

***Калит сўзлар:** бола образи, қиёсий таҳлил, ўзбек насри, рус насри, Гафур Ғулом, Абдулла Қаҳҳор, Лев Толстой, Антон Чехов, болалик мавзуси, ижтимоий муҳит, тарбия, адабий образ, реализм.*

Бола образи адабиётда маълумот ва ғояларни самимий, таъсирли шаклда етказишда ўзига хос восита вазифасини ўтайди. Ҳар икки – ўзбек ва рус – адабиётларида болалар образлари орқали ижтимоий муаммолар, маънавий қийматлар

хамда тарбиявий ғоялар акс этган. Болаларнинг бегубор нигоҳидан тасвирланган воқеалар ўқувчи қалбига тез етиб боради, чунки бола қалби орқали ҳаёт ҳақиқатлари очиқ-ойдин намоён бўлади. Ўзбек ва рус насрий асарларида бола қаҳрамонлар турли тарихий ва маданий заминда шаклланган бўлса-да, улар орқали илгари сурилган ғоялар ва эстетик-фалсафий таъкидлар ўхшаш жиҳатларга эга. Ушбу мақолада ўзбек адабиёти намуналари (масалан, Ғафур Ғулом ва Абдулла Қаҳҳор асарлари) ҳамда рус адабиёти намуналари (Антон Чехов, Лев Толстой ва бошқалар) мисолида бола образининг талқини қиёсий таҳлил этилади. Ўзбек насрий адабиётида бола образини юзага келтириш, асосан, совет давридаги ижтимоий воқеликни акс эттириш жараёнида муҳим аҳамият касб этди. Ёзувчилар болалик хотиралари ва болалар ҳаётини тасвирлаш орқали ўқувчига ҳақиқатни етказишга интилишган. Масалан, Ғафур Ғуломнинг “Шум бола” қисси (1936) ўзбек насрида бола образини мароқли ва таъсирчан тарзда яратган илк асарлардан бири ҳисобланади. Асарда бош қаҳрамон Қоровой номли ёш бола – етим бола –нинг бошдан кечирган саргузаштлари орқали XX аср бошларидаги Тошкент ҳаёти ҳаққоний ёритилган. “Шум бола” асари бола нигоҳида ўша давр шаҳару қишлоқларининг маданий ҳаёти, болалар ўйинлари ва турмуш тарзи ҳақида жонли тасвирларни беради. Шу тариқа, Ғафур Ғулом бола образини тарихий-этнографик муҳит билан боғлаб, уни реалистик ва ҳаётий тарзда шакллантирган. Қоровой – чаққон, шайдо ва топқир бола – ҳаётда тирикчилик қилиш учун бозор-маҳаллаларда ён дафтарча сотишдан тортиб турли ноҳолис ишларни қилишга мажбур. Унинг мисолида ёзувчи ўша давр ижтимоий муҳитида бола қандай тиришқоқлик ва чаққонликка мослашишга мажбур бўлганини кўрсатади.

“Шум бола” асари асосида суратга олинган фильмдан лавҳа: етим бола Қоровойнинг ҳаётдан норози, мухтож аҳволи тасвири. Ёзувчи Ғафур Ғулом ўғил бола

образи орқали ўша давр жамиятида болалар қандай қийинчиликлар билан юзлашганини реалистик акс эттиради. Абдулла Қаҳҳорнинг “Ўтмишдан эртақлар” қиссаси эса ўзбек насрида бола образини бошқа бир усулда шакллантиради. Бу асар Абдулла Қаҳҳорнинг болалик хотираларига асосланган автобиографик қисса бўлиб, унинг ижодий меросида муҳим ўрин тутди. Ёзувчи асарда ўз болалигида кўрган-кечирганларини ҳаққоний баён этар экан, бола образини ҳодисалар марказига эмас, балки кузатувчи сифатида қўяди. Яъни, асарда бола – ёш Абдулла – асосан “кўз гувоҳи” ва “холис ҳикоячи” сифатида тасвирланган бўлиб, воқеалар унинг болача нигоҳидан берилган.

“Ўтмишдан эртақлар”да боланинг ўзи эмас, у гувоҳ бўлган оила даврасидаги воқеалар, жамиятдаги зулму-жаҳолат манзаралари тасвирланади. Шунга қарамай, бу асардаги бола образи ўқувчига чуқур таъсир қилиб, ўша тарихий давр ҳаётининг фожеали томонларини ҳис эттиради. Абдулла Қаҳҳор болалик чеҳраси ортида жойлашган оғир давр манзараларини маҳорат билан чизиб беради – масалан, асарда “кунлар ғўрбат билан бошланиб, ғўрбат билан тугарди” деган ҳукм тасвирланиб, болалик даври қанчалик оғир ўтгани ёрқин ифодаланади.

Шу боис, “Ўтмишдан эртақлар” мазмунида бола образи орқали бутун бир авлоднинг машаққатли ҳаёти, жамиятдаги жаҳолат ва камолот йўлига эътиборсизлик қош этилади. Қаҳҳор болалик давридан лавҳалар келтирар экан, ўқувчининг руҳиятига таъсир қилувчи кучли реализмга таянади. Қиссадаги ҳар бир бўлим мустақил бир ҳикоячадек тузилгани, трагик руҳдаги воқеий новеллалардан иборат экани таъкидланади – бу эса асарнинг бадиий шаклига хос хусусиятдир. Абдулла Қаҳҳорнинг ўзи мазкур асари ҳақида шундай деган: “Мен ёшлигимда гувоҳ бўлганларимни ёздим. Ҳақиқатни, фақат ҳақиқатни ёздим. Агар бу ҳақиқат сиз – замонавий ёшларга дахшатли кўринса, демак мен бу аччиқ ҳақиқатимни охиригача

хақиқат ҳикояси – эртак деб номлайман!”. Бу сўзлар ёзувчининг болалик хотиралари орқали беришга уринган хақиқатпарварлик ва ҳаётийлик тамойилини яққол кўрсатади. Демак, ўзбек насрида бола образи ё реалистик саргузаштлар қаҳрамони сифатида (“Шум бола”), ёки хотирот ва кузатувчи сифатида (“Ўтмишдан эртаклар”) шаклланиб, ҳар икки ҳолатда ҳам тарихий хақиқатни таъсирли акс эттиришга хизмат қилган. Рус адабиётида бола образи XIX аср реализм адабиёти даврида тобора ахамият касб эта бошлади. Лев Толстой ва Антон Чехов каби классиклар болалик мавзусини янги бадиий даражага кўтардилар. Жумладан, Лев Толстойнинг “Болалик” (Детство) повести (1852) рус насрида тўлиқ бола нигоҳидан ҳикоя қилинган илк асарлардан бири эди. Автобиографик жанрда ёзилган бу асарда Толстой бош қаҳрамон Николенка Иртеневнинг болалик даври ҳис-туйғуларини самимий баён қилади. Толстой боланинг ички оламини, унинг биринчи бор муҳаббатни ҳис этиши, оила муҳитидаги воқеаларни қандай қабул қилиши каби жиҳатларни майда деталларигача тасвирлайди. Асарнинг асосий ғояси — инсон характери пойдевори болаликдаёқ шаклланади ва киши ўз-ўзини такомиллаштиришга интилиши лозимлигидадир. Шу орқали Толстой бола образини фалсафий-маърифий йўналишда шакллантириб, ўқувчига тарбия ва ўз-ўзини камол эттириш ғоясини узатади. Антон Чехов эса 1880-йиллардан бошлаб болаларни ўз ҳикояларида марказий ўринга қўя бошлади. Адабиётшунослар қайд этганидек, Чеховнинг деярли барча асарларида болалар учрайди – у 285 дан ортиқ бола қаҳрамон яратган бўлиб, улар жамиятнинг турли қатламлари ва оилавий муҳитларига мансубдир. Айти қирқинчи йиллар охири – элтигинчи йиллар бошида ёзилган йигирмага яқин ҳикоялари тўла болалар ҳаётига бағишлангани Чеховнинг болалик мавзусига қанчалик қизиққанини кўрсатади. Чехов бола образини шакллантиришда реализм ва психологияга таянган. У болалар руҳиятини, уларнинг орзу-интилишлари ва ранж-аламларини нафислик билан очиб беради. Масалан, унинг “Ванька” номли машҳур

ҳикоясида 9 яшар етим бола Ваньканинг бошидан кечирган аччиқ тажрибаси тасвирланади: у Москвада пойабзаннинг шогирди бўлиб азобда яшар экан, Рождество кечасида қишлоқдаги бобосига бағри ёрилиб мактуб ёзади. Ваньканинг бекаму-қўст содда умиди — бобоси уни келиб олиб кетиши — орқали Чехов ўқувчида беихтиёр шафқат ва ҳамдардлик туйғуларини уйғотади. Шундай қилиб, Чехов бола образини кичик одамнинг катта муҳитдаги трагик тақдир сифатида шакллантириб, жамиятдаги ночор қатлам болаларининг оғир аҳволини кўрсатади. Унинг “Уйда” (“Дома”) ҳикоясида эса бир томондан боланинг файзли ва бегубор дунёси, иккинчи томондан отанинг тарбия борасидаги қайғуриши драматик бир лавҳада кўрсатилади. Отаси кичик ўғлини чилим чекиш одатидан қайтариш учун жазолаш ўрнига эртак айтгани болага таъсир қилгани орқали Чехов замонасининг тарбияга доир илғор қарашларини адабиётга олиб кирган. Олимларнинг таъкидлашича, Чеховнинг бола қаҳрамонлари айнан ўша давр болалар тарбияси хусусидаги қарашлар билан мулоқотда шаклланган бир адабий модел ҳисобланади. Шу боис Чехов асарларида болалар орқали оталар ва фарзандлар ўртасидаги мураккаб муносабатлар, авлодлар талашуви каби мавзу улкан ахамият касб этган – ҳатто бир адабиётшуноснинг таъкидлашича, Чехов ижодини тутган драматизмга асос болган мавзу “оталар ва болалар конфликт”идир.

Умуман, рус адабиётида Толстой бола образини орқали инсоннинг ахлоқий камолоти ва тарбияни, Чехов эса болаларнинг ҳаётдаги ўрни ва ижтимоий адолат мавзуларини марказга қўйган ҳолда шакллантирганлар. Бола қаҳрамонлар уларнинг асарларида ё атроф-оламни теран ҳис қилувчи ва ўсиб бораётган шахс сифатида (Толстойда), ёки катталар дунёси таъсирини ўз елкасида сезаётган, баъзан ночор, баъзан эса ақлли ва айёр субъект сифатида (Чеховда) намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гафур Гулом “Шум бола” асарининг Тошкент ва атрофидаги этнографик ҳаётни ҳаққоний тасвирлаши ҳақида: oyna.uz.

“Шум бола” асарининг тарбиявий аҳамияти (ўтмиш ва бугун таққосида): oyna.uz.

2. Абдулла Қаҳҳор “Ўтмишдан эртаклар” – болалик хотиралари ва миллат болаларининг машаққатли ҳаёти тасвири: jdrp.uz.

3. “Ўтмишдан эртаклар”да бола образи кузатувчи сифатида, асосий эътибор воқеалар тасвирига қаратилган: turtkultumanakm.uz.

4. “Ўтмишдан эртаклар” – асарда инсон шаъни ва қадри, жаҳолатга қарши исён сўнгги фарёддай янграган: turtkultumanakm.uz.

5. Чехов ижодиётида болалар мавзуси, болалар иштирок этган асарлари сони ва уларнинг ижтимоий кўлами: researchgate.net.

6. Чехов асарларида “оталар ва болалар” муаммосининг марказий аҳамияти ҳақида: researchgate.net.

7. Лев Толстой “Болалик” асарининг асосий ғояси – характер пойдевори болаликда қўйилиши ҳақида: leo-tolstoy.com.

8. Чеховнинг “Ванька” ҳикояси сюжети (етим боланинг бобосига мактуб ёзиш ҳолати) ҳақида: en.wikipedia.org en.wikipedia.org.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

Ulasheva Nafisa Ximmat qizi

Alfraganus unversiteti 1-kurs magistranti

e-mail: ulashevanafisa4@gmail.com

Zamonaviy ta'lim jarayoni jamiyatning intellektual rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida muhim omil hisoblanadi. Ta'lim tizimining jadal rivojlanishi va global miqyosda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ta'lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, xususan, raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi va masofaviy ta'limning keng tarqalishi pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" tamoyili asosida ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning markazida, albatta, zamonaviy fikrlaydigan, innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi turibdi.

Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari interfaol ta'lim metodlari, loyiha-tadqiqot texnologiyalari, muammoli ta'lim usullari va case-study metodikasidan kompleks foydalanishni talab etadi. Bundan tashqari, raqamli ta'lim muhitini yaratish, kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish va ta'lim jarayonini individuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilish faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari raqamli transformatsiya, globallashtirish va xalqaro integratsiya, uzluksiz ta'lim paradigmasi hamda kompetensiyaviy yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu tendensiyalar bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yangicha talablar qo'yimoqda va yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan

birga, bu jarayonda an'anaviy pedagogik qadriyatlar va milliy ta'lim an'alarini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon kompleks yondashuvni talab etadigan murakkab pedagogik hodisadir. Innovatsion ta'lim sharoitida bilish faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb belgilash mumkin:

Birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim talabidir. Bu nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari, balki raqamli muhitda samarali ishlash, virtual ta'lim platformalarini boshqarish va raqamli resurslarni yaratish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi.¹

Ikkinchidan, kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish zamonaviy o'qituvchining muhim kompetensiyasi hisoblanadi. Bu orqali bo'lajak o'qituvchilar ta'lim jarayoniga yangicha qarash, nostandart yechimlar topish va o'z faoliyatlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kun talabidir. Tez o'zgaruvchan ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilab borish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur.

To'rtinchidan, pedagogik ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini yanada samarali rivojlantirish mumkin.

Beshinchidan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yaratish mumkin.

¹ Johnson, K. & Smith, L. (2023). Digital Competencies in Teacher Education. *Educational Technology Research and Development*, 71(2), 45-62.

Bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonida zamonaviy ta'lim tizimining bir qator xususiyatlarini hisobga olish zarur. Safarov (2023) ta'kidlaganidek², bugungi kunda pedagogik ta'lim jarayonida quyidagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda: integrativ yondashuv, modulli ta'lim tizimi, loyiha-tadqiqot faoliyati va raqamli ta'lim muhiti.

Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda fanlararo aloqalarni kuchaytirish, nazariya va amaliyot birligini ta'minlash imkonini beradi. Bu yondashuv orqali talabalar turli fan sohalaridagi bilimlarni sintez qilish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishlari mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Virtual ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, onlayn ta'lim resurslari va masofaviy ta'lim texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarning bilim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Bu esa o'z navbatida pedagogik ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish va uzluksiz kasbiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan chambarchas bog'liq.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadigan va muntazam takomillashtirishni taqozo etadigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasalarining innovatsion salohiyati, professor-o'qituvchilar tarkibining kasbiy mahorati va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining samarali qo'llanilishiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta'lim metodlari, loyiha-tadqiqot faoliyati, muammoli ta'lim hamda raqamli ta'lim muhitini shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim omillardan hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali pedagogik jarayonni takomillashtirish imkoniyati kengaymoqda.

² Сафаров, Ш.А. (2023). Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш. Тошкент: "Фан ва технологиялар" нашриёти.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сафаров, Ш.А. (2023). Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини ривожлантириш. Тошкент: "Фан ва технологиялар" нашриёти.
2. Anderson, T. (2022). The Theory and Practice of Online Learning. New York: Routledge.
3. Белозерцев, Е.П. (2023). Педагогическое образование в условиях цифровизации. Москва: Педагогика.
4. Martinez, M.R. (2024). Innovation in Teacher Education. Journal of Teacher Education, 75(1), 23-35.
5. Юлдашев, М.А. (2023). Ўзбекистонда педагог кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш. Тошкент: Ўқитувчи.
6. Абдуллаева, К.М. (2023). Педагогик таълимни модернизациялаш: назария ва амалиёт. Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти.

EFFECTIVE AND INEFFECTIVE STRATEGIES FOR INTRODUCING NEW TECHNOLOGY AND IMPLEMENTING CHANGE IN SCHOOLS

Sodiqjonova Gulhayo Akbar qizi -Teacher of the Department of Foreign Language
Practice and Theory

gulhayosodiqjonova@gmail.com

Abstract

The integration of technology in education is a transformative process that can greatly enhance teaching and learning outcomes. However, the success of implementing technological changes in schools heavily depends on the methods and strategies employed. This paper explores both the effective ("good") and ineffective ("bad") approaches to bringing new technology into schools, focusing on key factors such as stakeholder involvement, planning, training, infrastructure, resistance to change, and sustainability. Using case studies, theoretical perspectives, and real-world examples, the paper provides a comprehensive analysis of how educational institutions can foster innovation while avoiding common pitfalls.

Introduction

In today's digital age, the role of technology in education is more prominent than ever before. Schools around the world are increasingly adopting various technological tools to support teaching, streamline administrative tasks, and enhance student engagement. However, introducing new technology is not merely about purchasing devices or software; it is a complex change management process that requires thoughtful planning, inclusive decision-making, ongoing support, and clear goals. When poorly implemented, technology initiatives can fail, wasting resources and creating frustration among teachers, students, and administrators.

This paper investigates the dichotomy between effective and ineffective strategies for introducing technology and implementing institutional change. Drawing on change management theories, best practices in educational leadership, and empirical studies, it aims to provide insights and recommendations for educators, school leaders, and policymakers.

1. Theoretical Framework: Change Management in Education

Change management models such as Kotter's 8-Step Change Model, Lewin's Change Theory, and Fullan's Educational Change Theory offer valuable insights into implementing new initiatives in schools. These models emphasize the importance of vision, leadership, communication, and stakeholder engagement. Kotter's model outlines steps including creating urgency, forming powerful coalitions, developing a strategic vision, communicating the vision, empowering broad-based action, generating short-term wins, consolidating gains, and anchoring new approaches in the culture. Fullan highlights the human and emotional aspects of change, suggesting that successful change is not just technical but also cultural and relational. Lewin's model involves unfreezing existing behaviors, making the change, and refreezing new behaviors to become standard practice.

2. Good Ways to Bring Technology into Schools

2.1. Inclusive Planning and Vision Sharing

A clear, shared vision among all stakeholders, including teachers, students, administrators, and parents, sets the foundation for successful technology integration. Engaging stakeholders early in the planning phase helps identify needs, resources, and potential barriers. This also ensures ownership and accountability.

2.2. Pilot Programs and Phased Implementation

Starting with small-scale pilot programs allows schools to test new technologies, gather feedback, and make adjustments before full-scale rollout. Phased implementation ensures smoother transitions, reduces risk, and builds momentum. Schools can use pilot data to guide decisions about scaling and training.

2.3. Professional Development and Continuous Support

Providing comprehensive training and ongoing professional development is crucial. Teachers must not only learn how to use new tools but also how to integrate them pedagogically. Workshops, webinars, mentoring, and peer collaboration are effective ways to develop digital literacy. Continuous support ensures sustainability.

2.4. Infrastructure and Technical Support Reliable internet access, functioning hardware, and readily available IT support ensure that technology can be used effectively without frequent disruptions. Schools must budget for maintenance and upgrades to keep systems current. Lack of infrastructure is a common barrier to effective implementation.

2.5. Monitoring and Evaluation

Establishing clear metrics and evaluation processes helps assess the impact of new technology and guide future improvements. Evaluation should include both qualitative and quantitative data, and feedback should be used to refine strategies and training programs. It ensures accountability and helps maintain focus on learning outcomes.

3. Bad Ways to Introduce Technology

3.1. Top-Down Decision-Making Without Stakeholder Input

When decisions are made by administrators without consulting teachers or students, it often leads to resistance and poor adoption. Stakeholders may feel excluded and skeptical of imposed changes. This can undermine morale and create tension among staff.

3.2. Lack of Training and Support

Introducing new tools without adequate training causes stress and confusion. Teachers may misuse or avoid the technology altogether, undermining its benefits. Without support, even enthusiastic users may abandon the initiative due to frustration or technical issues.

3.3. Inadequate Infrastructure

Bringing in advanced digital tools without ensuring basic infrastructure (e.g., Wi-Fi, electricity, technical support) can lead to project failure. Devices may remain unused or be used improperly due to insufficient resources or technical failures.

3.4. One-Size-Fits-All Solutions

Not all technologies suit every classroom or subject. Imposing uniform solutions ignores the diverse needs of different learners and educators. Tailoring tools and approaches to context ensures relevance and effectiveness.

3.5. Ignoring the School Culture and Context

Failure to consider a school's specific context, history, and readiness for change results in misalignment and lack of sustainability. Culture shapes how technology is received, used, and sustained. Ignoring this often results in resistance or passive non-compliance.

4. Case Study: Successful Technology Implementation

A secondary school in Finland implemented a digital learning platform by first involving all teaching staff in a series of workshops to assess needs. A pilot program was launched with a small group of teachers who volunteered. After six months, the program expanded gradually, with regular training sessions, peer coaching, and feedback loops. IT staff were always available, and usage data was regularly reviewed. As a

result, student engagement and digital literacy improved significantly, and the platform became a core component of instruction. The program also inspired cross-departmental collaboration and innovation in teaching practices.

5. Case Study: Failed Technology Implementation

A school in a developing country received tablets through a government initiative. However, teachers were not consulted, and no training was provided. The internet was unreliable, and devices were frequently broken. Within a year, most of the tablets were unused or damaged, and the initiative was abandoned. Students and teachers reverted to traditional methods, and the school community lost trust in similar future projects. The initiative lacked vision, planning, and support, resulting in wasted investment and disillusionment.

6. Recommendations

Involve all stakeholders from the outset to ensure buy-in and relevance.

Align technology with pedagogical goals and curriculum standards.

Invest in comprehensive professional development and technical support.

reliable infrastructure, including internet, electricity, and hardware. Use data and feedback mechanisms to guide and adjust implementation. Promote a school culture that embraces innovation and collaboration. Avoid top-down imposition; adopt participatory and iterative strategies. Consider the specific needs and contexts of different users and subject areas. Reliable internet access, functioning hardware, and readily available IT support ensure that technology can be used effectively without frequent disruptions. Schools must budget for maintenance and upgrades to keep systems current. Lack of infrastructure is a common barrier to effective implementation.

2.5. Monitoring and Evaluation

Establishing clear metrics and evaluation processes helps assess the impact of new technology and guide future improvements. Evaluation should include both qualitative and quantitative data, and feedback should be used to refine strategies and training programs. It ensures accountability and helps maintain focus on learning outcomes.

3. Bad Ways to Introduce Technology

3.1. Top-Down Decision-Making Without Stakeholder Input

.When decisions are made by administrators without consulting teachers or students, it often leads to resistance and poor adoption. Stakeholders may feel excluded and skeptical of imposed changes. This can undermine morale and create tension among staff.

Bringing in advanced digital tools without ensuring basic infrastructure (e.g., Wi-Fi, electricity, technical support) can lead to project failure. Devices may remain unused or be used improperly due to insufficient resources or technical failures.

4. Case Study: Successful Technology Implementation

A secondary school in Finland implemented a digital learning platform by first involving all teaching staff in a series of workshops to assess needs. A pilot program was launched with a small group of teachers who volunteered. After six months, the program expanded gradually, with regular training sessions, peer coaching, and feedback loops. IT staff were always available, and usage data was regularly reviewed. As a result, student engagement and digital literacy improved significantly, and the platform became a core component of instruction.

The program also inspired cross-departmental collaboration and innovation in teaching practices.

5. Case Study: Failed Technology Implementation

A school in a developing country received tablets through a government initiative. However, teachers were not consulted, and no training was provided. The internet was unreliable, and devices were frequently broken. Within a year, most of the tablets were unused or damaged, and the initiative was abandoned. Students and teachers reverted to traditional methods, and the school community lost trust in similar future projects. The initiative lacked vision, planning, and support, resulting in wasted investment and disillusionment.

6. Recommendations

Involve all stakeholders from the outset to ensure buy-in and relevance.

Align technology with pedagogical goals and curriculum standards.

Invest in comprehensive professional development and technical support.

Ensure reliable infrastructure, including internet, electricity, and hardware.

Use data and feedback mechanisms to guide and adjust implementation.

Promote a school culture that embraces innovation and collaboration.

Avoid top-down imposition; adopt participatory and iterative strategies.

Consider the specific needs and contexts of different users and subject areas. Ensure sustainability through long-term planning and budgeting.

Conclusion

The successful integration of new technology in schools depends not on the tools themselves but on how change is managed. Inclusive planning, adequate training, infrastructure, and alignment with educational goals are key to effective implementation. Conversely, neglecting these elements leads to failure and wasted investment. Technology, when thoughtfully integrated, can revolutionize teaching and learning by fostering student engagement, enhancing access to information, and preparing learners for the digital age. However, the process of technological adoption must be grounded in a strong understanding

of change management, informed by empirical evidence, and attuned to the cultural and logistical realities of the school. The biggest determinant of success lies not in the technology, but in the human capacity to collaborate, adapt, and lead with a shared vision for improvement. Ultimately, meaningful and sustainable change occurs when technology is treated as a tool for pedagogy, not an end in itself.

References

Fullan, M. (2007). *The new meaning of educational change*. Routledge.

Kotter, J. P. (1996). *Leading change*. Harvard Business Press.

Lewin, K. (1947). *Frontiers in group dynamics: Concept, method, and reality in social science; social equilibria and social change*. *Human Relations*, 1(1), 5-41.

Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). *Teacher technology change: How knowledge, confidence, beliefs, and culture intersect*. *Journal of Research on Technology in Education*, 42(3), 255-284.

Selwyn, N. (2011). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Bloomsbury Publishing.

Voogt, J., Fisser, P., Good, J., Mishra, P., & Yadav, A. (2015). *Computational thinking in compulsory education: Towards an agenda for research and practice*. *Education and Information Technologies*, 20(4), 715-728.

TA'LIMDA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Nuriya Masharipova Hamro qizi

Ttauf Nevrologiya 1- bosqich magistratura talabasi

+998 91 432 18 04

Olimova Dano Shakirovna

Pedagogika fanlari nomzodi,dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida texnologik yondashuvning ahamiyati va uni samarali qo'llash usullari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va interaktiv platformalarning o'quv jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, dars samaradorligini ta'minlashi hamda individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirishi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishning afzalliklari, muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Maqola pedagogik jarayonni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, texnologik yondashuv, raqamli texnologiyalar, interaktiv dars, innovatsion ta'lim, pedagogik metodlar, o'quv jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, masofaviy o'qitish.

Kirish.

Zamonaviy davrda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar va innovatsion texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi pedagogik jarayonlarga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. An'anaviy o'qitish uslublari o'z o'rnini asta-sekin ilg'or texnologiyalar asosidagi ta'lim shakllariga bo'shatmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, onlayn ta'lim platformalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy yondashuv

ko'nikmalarini rivojlantiradi. Texnologik yondashuv — bu nafaqat texnik vositalardan foydalanish, balki o'quv jarayonini tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va natijador shaklda tashkil etish metodologiyasidir. Unda o'qituvchi bilim beruvchidan ko'ra ko'proq yo'naltiruvchi va ko'makchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv o'quvchilarga bilimlarni mustaqil egallash, ularni amalda qo'llash va real hayotdagi muammolarga yechim topishga yo'naltirilgan faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish borasida muhim qadamlar qo'yilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim muassasalarida raqamli vositalardan foydalanish samaradorligi ortib bormoqda. Bunday sharoitda ta'limda texnologik yondashuvni chuqur o'rganish, uning imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqolada texnologik yondashuvning ta'limdagi roli, uni samarali joriy etish yo'llari, afzalliklari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularning yechimlari atroflicha tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

Texnologik yondashuv — bu ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilar bilan samarali aloqani yo'lga qo'yish va ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Ushbu yondashuv o'qitish mazmuni, shakli, metodlari va vositalarini tubdan o'zgartirib, o'quv jarayonini interaktiv, ochiq va ijodiy muhitda tashkil etish imkonini beradi.

1. Texnologik yondashuvning asosiy tamoyillari. Texnologik yondashuv bir nechta muhim tamoyillarga asoslanadi: Tizimlilik – o'quv jarayoni oldindan belgilangan maqsad, vazifa, metod, vosita va natijalarni o'z ichiga olgan yagona tizim sifatida qaraladi. Maqsadga yo'naltirilganlik – har bir dars aniq pedagogik maqsadlarga yo'naltiriladi. Faollik va mustaqillik – o'quvchilar darsda faollik bilan ishtirok etadi va mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Refleksiya va tahlil – o'quv jarayonida olingan bilimlar doimiy tahlil qilinadi va baholanadi.

2. Texnologik yondashuv vositalari. Bugungi kunda ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan texnologik vositalarga quyidagilar kiradi: Multimedia vositalari (video, audio, animatsiyalar) Interaktiv doskalar. Kompyuter dasturlari va mobil ilovalar. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) vositalari. Elektron o'quv qo'llanmalari va platformalari

(Moodle, Google Classroom, Coursera, Edmodo va boshqalar) Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari. Ushbu vositalar orqali o'quvchilar individual ravishda bilim olishi, tezkor va qiziqarli shaklda darsni tushunishi, real hayotga yaqin misollar bilan ishlashi mumkin.

3. Texnologik yondashuvning afzalliklari. Ta'limda texnologik yondashuvning quyidagi ijobiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi: Shaxsiylashtirilgan ta'lim – har bir o'quvchining bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkoniyati yaratiladi. O'zlashtirish darajasining oshishi – vizual, audio va interaktiv vositalar yordamida bilimlar chuqurroq o'zlashtiriladi. Moslashuvchanlik – o'quv jarayoni istalgan joyda va vaqtda tashkil etilishi mumkin. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – texnologiyalar orqali ochiq muhitda ishlash, o'z fikrini erkin bildirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Muvozanatli va samarali baholash tizimi – testlar, viktorinalar, onlayn monitoring vositalari yordamida o'quvchilar bilim darajasi doimiy kuzatib boriladi.

4. Texnologik yondashuvdagi muammolar. Shunga qaramay, texnologik yondashuvni ta'limga tatbiq etishda bir qator muammolar ham mavjud: Texnik jihozlanishning yetarli emasligi – ayrim hududlarda internet tarmog'i yoki zamonaviy qurilmalarning yetishmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi – barcha pedagoglar ham texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega emas. Dijital nomuvofiqlik – o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi texnologik bilimlar farqi ba'zan to'siq bo'lishi mumkin. Shaxsiy muloqot yetishmasligi – onlayn ta'limda bevosita muloqot imkoniyatlari cheklanishi mumkin.

5. Rivojlantirish yo'nalishlari. Texnologik yondashuvni rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi: O'qituvchilarni muntazam ravishda AKT bo'yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish; Ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash; O'quv dasturlariga interaktiv va onlayn resurslarni integratsiya qilish; O'quvchilar uchun ochiq ta'lim muhitini yaratish va raqamli madaniyatni shakllantirish; Ilmiy-amaliy loyihalarni yo'lga qo'yish va texnologik innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, texnologik yondashuv zamonaviy ta'limning ajralmas va zaruriy tarkibiy qismiga aylangan. U nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki

o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, ularni faol va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida turli texnologik vositalardan oqilona foydalanish o'quvchilarning axborotni tez va samarali qabul qilishi, uni tahlil qilishi va amaliyotda qo'llay olishini ta'minlaydi. Shuningdek, texnologik yondashuv o'qituvchining ham pedagogik mahoratini oshirish, darslarni innovatsion shaklda tashkil etish imkonini beradi. Ammo bu yo'nalishda mavjud bo'lgan texnik, metodik va tashkiliy muammolarni tizimli hal qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta'lim tizimida raqamli vositalarni joriy etish bilan bir qatorda, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish, texnologik infratuzilmani mustahkamlash, o'quvchilar uchun qulay va samarali raqamli muhit yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Kelajak ta'limi raqamli transformatsiyaga tayanadi. Shunday ekan, texnologik yondashuvni to'g'ri yo'lga qo'yish, uning pedagogik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi qarori. – 2020 y.
3. Qodirova D.S., Mamatqulova M.M. Axborot texnologiyalari asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Xolbekov M.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Ziyoyeva G.Z. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
6. Jononov A. Raqamli ta'limning pedagogik asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.
7. Murodov T., Yo'ldoshev Sh. O'quv jarayoniga interaktiv metodlarni tatbiq etish. – Buxoro: BDU, 2020.
8. UNESCO. ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications. – 2021.
9. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 2006.

10. Bates, A. T. Teaching in a Digital Age. – Tony Bates Associates Ltd., 2015.
11. Anderson, T. The Theory and Practice of Online Learning. – AU Press, 2008.
12. Kozma, R.B. ICT and Educational Reform in Developing Countries: Policy, Plans and Practices. – 2005.
13. Siemens, G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. – International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.
14. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury, 2016.
15. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. O‘qituvchilar uchun raqamli ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2022.

**SUYAK YEMIRILISHI KASALLIKLARINING HOZIRGI KUNDAGI
DOLZARBLIGI.**

Anarova Shahzoda Amanbayevna

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori

Omonov Sarvar Abror o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistr talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezis suyak yemirilishi kasalliklarining zamonaviy tibbiyotdagi dolzarbligini ko'rib chiqadi. Aholi yoshining ortishi va turmush tarzining o'zgarishi bu kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda. Shu sababga ko'ra suyak yemirilishi kasalliklari dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Tezisdagi suyak yemirilishi kasalliklarining epidemiologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, dunyo bo'yicha statistikalar taqdim etilgan. Shuningdek, profilaktik choralarining ahamiyati va suyak salomatligini saqlash uchun tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: suyak yemirilishi, osteoporoz, osteoartroz, suyak mineral zichligi, suyak to'qimasi.

Suyak yemirilishi kasalliklari zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ularning keng tarqalishi va og'ir asoratlari butun dunyo sog'liqni saqlash tizimini oldiga muhim vazifalar qo'ymoqda. So'nggi yillarda ushbu patologiyalar bilan kasallanish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu holat, bir tomondan, tibbiy diagnostika usullarining takomillashuvi natijasida kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, dunyo aholisining qarishi va turmush tarzining o'zgarishi kabi obyektiv omillar bilan belgilanadi.

Zamonaviy tibbiyotda ushbu kasalliklarni erta tashxislash, rivojlanishini oldini olish va samarali davolash uslublarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, suyak mineral zichligini (BMD-Bone Mineral Density) aniqlovchi innovatsion texnologiyalar, gormonal va parhez terapiyalari, shuningdek, profilaktika va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Suyak yemirilishi kasalliklari guruhiga osteoporoz, osteoartroz, osteomalatsiya, paget kasalligi va boshqa bir qator kasalliklar kiradi. Ushbu kasalliklar suyak to'qimasining strukturasi va funktsional xususiyatlarining turli darajadagi buzilishlari bilan xarakterlanadi. Suyak to'qimasidagi metabolik jarayonlar muvozanatining buzilishi suyak massasining kamayishi, uning mikroarxitektonikasining buzilishi va natijada suyaklarning mo'rtlashishi va sinishlarga moyillikning oshishiga olib keladi. Suyak yemirilishi kasalliklarining xavfli va keng tarqalgan 2 ta turi bor, bu kasalliklar osteoporoz va osteartroz hisoblanadi.

Osteoporoz – bu suyak zichligi pasayishi va suyak to'qimasining yupqalashuvi bilan bog'liq surunkali kasallikdir. Suyaklar doimiy ravishda yangilanib, kuch va zichlikni saqlash uchun o'z-o'zini yangilash xususiyatiga ega. Bu jarayon ikki turdagi hujayralar – osteoblastlar va osteoklastlar orqali amalga oshadi. Osteoblastlar suyak to'qimasini hosil qiluvchi hujayralar bo'lib, osteoklastlar esa suyak to'qimasini parchalab, yangilanish jarayonini ta'minlaydi. Suyak yemirilishi jarayonida osteoklastlarning faolligi oshib ketadi va bu jarayon suyak zichligining kamayishiga olib keladi.

Optimal suyak mineral zichligiga erishish va uni butun hayot davomida saqlab qolish, osteoporozdan himoyalashning asosiy strategiyasi hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda bolalik va o'smirlilik davrida maksimal suyak massasining shakllanishiga erishish muhimdir. Osteoporoz, o'z tabiatiga ko'ra, jismoniy cheklanishlar, og'riq va boshqa noqulayliklarga olib kelishi mumkin. Bu esa bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi, ularning ijtimoiy faolligini cheklaydi va ko'pincha mustaqil harakatlanish qobiliyatini yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, suyak sinishidan so'ng suyak to'qimasi qayta tiklanish uchun uzoq muddat talab qiladi va bunday holatlarda bemor to'liq yaxshi bo'lmasligi ham mumkin. Shu bois, osteoporoz nafaqat individual sog'liq muammosi, balki xalqaro miqyosda ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Suyak yemirilishi kasalliklarining tibbiy-ijtimoiy ahamiyati nafaqat ularning keng tarqalishi, balki ular keltirib chiqaradigan og'ir asoratlar, nogironlik darajasining yuqoriligi va bemorlarning hayot sifatining sezilarli darajada pasayishi bilan ham belgilanadi. Osteoporoz tufayli kelib chiqadigan son suyagining sinishlari 20% hollarda o'lim bilan yakunlanadi, 50% hollarda esa nogironlikka olib keladi. Taxminan 50 va undan katta

yoshdagi ayollarning 30 foizi va erkaklarning 20 foizi osteoporoz bilan bog'liq sinishlarni boshdan kechirishadi.

Osteoartroz – bu bo'g'imlardagi qo'shimcha to'qimalarning asta-sekin yemirilishi va deformatsiyasiga olib keladigan surunkali degenerativ kasallikdir. Bu dunyoda eng keng tarqalgan bo'g'im kasalligi bo'lib, ayniqsa 50 yoshdan keyingi odamlarda uchraydi. Osteoartroz xavfi yosh ortgan sari ortib boradi. Kasallik asosan tizza, son suyaklari, qo'l barmoqlari va umurtqa pog'onasiga ta'sir qiladi.

Global miqyosda suyak yemirilishi kasalliklarining tarqalishi yuqori darajaga yetdi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, faqatgina osteoporoz bilan dunyoda taxminan 200 million kishi kasallangan. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, har uchinchi ayol va 50 yoshdan oshgan har beshinchi erkak hayotida osteoporotik sinishlarni boshdan kechiradi. Osteoartroz bo'yicha statistika yanada tashvishli – bu kasallik 300 milliondan ortiq insonlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo aholisini 50 yoshdan yuqorilarining 20 % qismi osteoartrozdan aziyat ko'rmoqda.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, suyak yemirilishi kasalliklari sog'liqni saqlash tizimiga katta moliyaviy zararni keltirib chiqaradi. AQShda osteoporoz va uning asaratlari bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlar yiliga 20 milliard dollardan oshadi. Yevropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 37 milliard yevrodan ortiq. Bu raqamlar osteoporozga asoslangan sinishlar bilan bog'liq davolash xarajatlari, rehabilitatsiya choralari va insonlar mehnat qobiliyatini yo'qotishi kabi iqtisodiy zararlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tibbiyotda suyak yemirilishi kasalliklarini tashxislash, davolash va oldini olish usullari sezilarli darajada takomillashtirilgan bo'lsada, ushbu patologiyalar bilan samarali kurashish uchun ko'p tarmoqli yondashuv va global strategiyalar talab etiladi. Erta tashxislash, xavf omillarini o'z vaqtida aniqlash, adekvat farmakoterapiya va rehabilitatsiya choralari suyak yemirilishi kasalliklarining salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Shuning uchun ham suyak yemirilishi kasalliklariga erta tashxis qo'yadigan dastur ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Bu tezisning maqsadi suyak yemirilishi kasalliklarining zamonaviy tibbiyotdagi dolzarbligini aniqlash, ularning epidemiologiyasi, klinik-diagnostik xususiyatlarini o'rganish va profilaktik choralarning zamonaviy usullarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot tibbiyot sohasidagi mutaxassislar, sog'liqni saqlash tashkilotlari uchun suyak yemirilishi kasalliklarining muhimligini oshirish, shuningdek ushbu patologiyalarni samarali boshqarish bo'yicha yangi bilim va yondashuvlarni taqdim etishga qaratilgan.

Xulosa

Suyak yemirilishi kasalliklari sog'liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biri bo'lib, ko'plab insonlarga aziyat yetkazmoqda. Suyak yemirilishi nafaqat bemorlarning hayot sifatini pasaytiradi, balki sezilarli iqtisodiy zararni ham keltirib chiqaradi. Zamonaviy diagnostika usullari va yangi avlod dori vositalari kasalliklarni boshqarishda muhim yutuqlarga olib kelgan bo'lsada, profilaktika choralari muhim ahamiyat kasb etadi. Suyak yemirilishi kasalliklarini samarali boshqarish kompleks yondashuvni, tibbiy xodimlar va jamoatchilikning birgalikdagi harakatlarini talab etadi. Erta tashxislash orqali bu kasalliklardan kelib chiqadigan salbiy alomatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Adabiyotlar.

1. B.N.Toshmamatov, Sh.S.G'ulomov, K.N.Botirov. Suyak yemirilishi kasalligi. // Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali, 2024. 172-175
2. D.Sh.Kiyamova, Sh.X.Turatov. Suyak yemirilishi (osteartroz, osteoporoz). // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 2024. 635-638
3. W.Tański, J.Kosiorowska, Ch.A.Szymańska. Osteoporosis – risk factors, pharmaceutical and non-pharmaceutical treatment. // European Review for Medical and Pharmacological Sciences, 2021. 3557-3566
4. L.Rodrigo. Osteoporosis - Recent Advances, New Perspectives and Applications. // IntechOpen, 2021. <http://dx.doi.org/10.5772/intechopen.97760>. 102 p.

5. M.S.LeBoff, S.L.Greenspan, K.L.Insogna, E.M.Lewiecki, K.G.Saag, A.J.Singer, E.S.Siris. The clinician's guide to prevention and treatment of osteoporosis. // Osteoporosis International, 2022. <https://doi.org/10.1007/s00198-021-05900-y>. 2049–2102

6. S.Özmen, S.Kurt, H.T.Timur, O.Yavuz, H.Kula, A.Y.Demir, A.Balcı. Prevalence and Risk Factors of Osteoporosis: A Cross-Sectional Study in a Tertiary Center. // Medicina, 2024. <https://doi.org/10.3390/medicina60122109>. 1-13.

PUL OQIMLARI TAHLILI ASOSIDA KORXONANING MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH

Karimov Shohruh Ahmadullo o‘g‘li

Magistr, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti.

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi korxonaning moliyaviy holatini baholashda pul oqimlari tahlilining ahamiyati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Pul oqimlari – bu nafaqat moliyaviy barqarorlikning aksidir, balki strategik qarorlar qabul qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Tezisdagi operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul oqimlari alohida ko‘rib chiqilib, ularning korxonaga faoliyatiga ta‘siri yoritilgan. O‘zbekiston korxonalarida misolida amaliy jihatlarni tahlil qilinib, samarali boshqaruv uchun takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Pul oqimlari, moliyaviy tahlil, operatsion faoliyat, investitsiya, moliyaviy barqarorlik.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlash ularning moliyaviy holatini chuqur va kompleks tahlil qilishga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, global iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya, valyuta kurslaridagi o‘zgarishlar, soliq siyosatidagi yangiliklar va boshqa makroiqtisodiy omillar korxonalarining moliyaviy muvozanatini izdan chiqarishi mumkin. Shunday murakkab iqtisodiy sharoitda, korxonaga rahbariyati va moliyaviy mutaxassislar tomonidan to‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi uchun aniq, ishonchli va tizimli moliyaviy tahlil vositalariga ehtiyoj kuchaymoqda. Ushbu vositalardan biri va eng muhimlaridan biri bu – **pul oqimlari tahlili** bo‘lib, u korxonaning real moliyaviy salohiyatini aniqlashda va faoliyatining rentabelligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul oqimlari (ya‘ni, pul mablag‘larining kirimi va chiqimi) tahlili moliyaviy hisobotlarning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu tahlil yordamida korxonaning qanchalik darajada mustaqil moliyalashtirish manbalariga ega ekanligi, investitsiyalarni qamrab olish qobiliyati, kreditlar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkoniyati va umuman moliyaviy intizomi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin

bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi zamon korxonalari o'z faoliyatini nafaqat ichki bozor, balki xalqaro maydonda ham olib borayotgan bir vaqtda, ularning pul oqimlarini tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy xavflar darajasi va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, pul oqimlari hisobotining boshqa moliyaviy hisobotlardan farqli jihatlari ham mavjud. Masalan, foyda va zarar to'g'risidagi hisobot ko'proq hisobiy (buxgalteriya) natijalarni ko'rsatadi, ya'ni real pul harakatlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Aksincha, pul oqimlari hisobotida faqatgina real pul kiritilishi va chiqimlari hisobga olinadi, bu esa korxonaning likvidligini, solvency darajasini va operatsion faoliyatining haqiqiy samaradorligini ko'rsatadi.

Shu sababli ham bu tahlil usuli investorlar, kreditorlar, soliq organlari va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan keng qo'llaniladi. Ushbu mavzuni tanlashdagi asosiy maqsad – korxonaning moliyaviy holatini baholashda pul oqimlari tahlilining o'rni va ahamiyatini aniqlash, amaliy misollar orqali ularning real foydasini ko'rsatish va samarali moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qanday rol o'ynashini ochib berishdir. Shu bilan birga, maqolada pul oqimlarini operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatga ajratish tamoyillari, ularni tahlil qilish metodikasi va eng ko'p uchraydigan muammolar yuzasidan ilmiy izohlar va takliflar keltiriladi. Bundan tashqari, o'zbek korxonalari misolida real tahlillar asosida pul oqimlari boshqaruvi bo'yicha takomillashtirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi. Korxonaning moliyaviy holatini puxta baholash va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun pul oqimlari tahlili muhim vosita hisoblanadi. Bu tahlil orqali moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishi, to'lovga qobiliyatning kafolatlanishi hamda investitsion jozibadorlikning oshirilishi mumkin. Aynan shuning uchun ham mazkur mavzuning ilmiy jihatdan o'rganilishi va amaliyotga tadbiq etilishi bugungi kundagi iqtisodiy rivojlanish jarayonida o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, balki yanada kuchayadi.

Korxonaning moliyaviy holatini baholashda eng ishonchli manbalardan biri bu – pul oqimlari tahlilidir. Mazkur tahlil nafaqat korxonaning bugungi kundagi moliyaviy ahvolini aks ettiradi, balki uning kelajakdagi barqarorligiga ham baho berish imkonini beradi. Pul oqimlari hisobotida aks etuvchi ma'lumotlar yordamida korxonaning naqd mablag'lar harakati, ularning manbalari va sarf yo'nalishlari aniq ko'rsatiladi. Bu esa moliyaviy boshqaruv qarorlarini puxta asoslashda, xavflarni kamaytirishda va samarali investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

1. Pul oqimlari tushunchasi va uning ahamiyati. Pul oqimlari — bu korxonaga kelib tushayotgan va undan chiqib ketayotgan barcha real naqd mablagʻlarning yigʻindisidir. Odatda, bu mablagʻlar uchta asosiy faoliyat turi boʻyicha guruhlanadi: **operatsion faoliyat**, **investitsion faoliyat** va **moliyaviy faoliyat**. Operatsion faoliyat korxonaning asosiy ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish faoliyatidan tushgan daromad va xarajatlarni qamrab oladi. Investitsion faoliyat esa korxonaning uzoq muddatli aktivlarga (binolar, uskunalar, texnologiyalar) qilgan sarmoyalari bilan bogʻliq. Moliyaviy faoliyat esa kreditlar olish, dividendlar toʻlash, qimmatli qogʻozlar chiqarish yoki sotib olish bilan bogʻliq pul harakatlarini ifodalaydi. Har bir faoliyat turi boʻyicha alohida tahlil olib borish orqali korxonaning qaysi yoʻnalishlarda faolroq ekani, qanday moliyaviy strategiyalarni tanlagani va qanday risklarga duch kelayotgani haqida aniq xulosa chiqarish mumkin boʻladi.

2. Pul oqimlarini tahlil qilish metodlari. Pul oqimlari tahlili bir nechta asosiy metodlardan foydalanadi. Eng keng tarqalganlari quyidagilardir:

- **Toʻgʻridan-toʻgʻri metod** – bunda real pul kirim va chiqimlari sanab oʻtiladi. Masalan, mahsulot sotishdan tushgan tushumlar, xodimlarga ish haqi toʻlash, tovarlar xaridi va boshqalar.
- **Boshqaruv metodlari** – bu usulda pul oqimlari prognoz qilinadi va rejalashtiriladi. Prognozlar asosida likvidlik holati, solishtirma koʻrsatkichlar tahlili olib boriladi.
- **Nisbatli tahlil metodlari** – bunda korxonaning pul oqimlariga oid koʻrsatkichlari turli moliyaviy nisbatlar orqali tahlil qilinadi. Masalan: pul oqimlarining umumiy aktivlarga nisbati, operatsion pul oqimlarining qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati, pul oqimlarining qarzlarni qoplash qobiliyati va hokazo.

3. Operatsion pul oqimlarining tahlili. Operatsion faoliyatdan tushgan pul mablagʻlari korxonaning real iqtisodiy salohiyatini aks ettiradi. Agar operatsion faoliyatdan ijobiy pul oqimi hosil boʻlsa, bu korxonaning asosiy faoliyati rentabelli, doimiy tushumlar manbaiga ega ekanligini bildiradi. Aksincha, operatsion faoliyatdan salbiy pul oqimi – korxonaning xarajatlarining daromadlardan ortiq ekani yoki naqd mablagʻlar oqilona boshqarilmayotganini koʻrsatadi. Oʻzbekiston sharoitida koʻplab kichik va oʻrta korxonalar aynan operatsion pul oqimlaridagi salbiy koʻrsatkichlar tufayli moliyaviy muammolarga duch

kelishmoqda. Misol uchun, ishlab chiqaruvchi korxonada mahsulot ishlab chiqarishdan daromad oladi, biroq to'lovlarni kechiktirish, mijozlarning qarzdorligi yoki noto'g'ri zaxira siyosati tufayli real pul tushumlari vaqtida amalga oshmaydi. Bu esa pul oqimida uzilishlarga olib keladi.

4. Investitsion pul oqimlarining tahlili. Investitsion faoliyat tahlili korxonaning uzoq muddatli strategiyasini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, agar korxonada aktivlarga sarmoya qilyotgan bo'lsa (masalan, yangi uskunalarni sotib olish, texnologiyani yangilash, ob'ektlarni qurish), bu uning kelajakda ishlab chiqarish quvvatini oshirishga intilayotganini anglatadi. Agar investitsion faoliyatdan musbat pul oqimi mavjud bo'lsa, ya'ni aktivlar sotilayotgan bo'lsa, bu moliyaviy muammolarning mavjudligidan darak bo'lishi mumkin. Investitsion pul oqimlarining tahlili orqali korxonaning o'sish strategiyasi bor-yo'qligi, investitsiyalarning qanchalik samarali ishlayotgani aniqlanadi. Shuningdek, bu tahlil investorlar uchun ham muhim – ular pul mablag'lari qanday ishlatilayotganini ko'rishadi va kelajakdagi daromadlarga nisbatan ishonch hosil qilishadi.

5. Moliyaviy faoliyat pul oqimlarining tahlili. Moliyaviy faoliyat doirasidagi pul oqimlari tahlili korxonaning qarz strategiyasi, dividend siyosati, kapital tuzilmasi haqida axborot beradi. Korxonada qanchalik darajada qarz olgani, bu qarzlarni qanday yo'nalishlarda ishlatayotgani, aksiyadorlarga dividend to'layaptimi yoki yo'qmi – bu kabi omillar moliyaviy barqarorlikni bevosita shakllantiradi. Misol uchun, agar korxonada katta miqdorda kredit olgan bo'lsa, bu holatda pul oqimlari orqali bu kreditlarning qanday ishlatilayotganini kuzatish mumkin. Shuningdek, pul oqimlari yordamida korxonaning o'z vaqtida qarz to'lay olish qobiliyati (to'lovga qobiliyat – solvency) ham baholanadi. Korxonada o'z majburiyatlarini bajara olmasa, bu nafaqat moliyaviy muammolar, balki obro'y yo'qotishiga, hatto bankrotlik xavfiga olib keladi.

6. Pul oqimlari asosida moliyaviy barqarorlikni baholash. Pul oqimlari tahlili korxonaning umumiy moliyaviy barqarorligini baholash uchun eng aniq vositalardan biridir. Bu tahlil yordamida quyidagi savollarga javob topish mumkin:

- Korxonada o'z faoliyatidan real daromad olyaptimi?
- Investitsiyalar daromad keltiryaptimi?
- Korxonada o'z moliyaviy majburiyatlarini vaqtida bajara olyaptimi?

- Pul oqimlarida qanday tendensiyalar mavjud: o'sish, pasayish yoki beqarorlik?

Shuningdek, pul oqimlari tahlili asosida korxonalar o'z ichki rezervlarini aniqlab, moliyaviy intizomni mustahkamlashi, naqd mablag'lar aylanishini optimallashtirishi mumkin. Bu orqali korxonalar resurslaridan samarali foydalanishga erishiladi, tashqi moliyaviy yordamga ehtiyoj kamayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlarga oid qaror va farmonlarida korxonalar faoliyatining ochiqligi, moliyaviy intizomi va tahliliy hisobdorlik tizimini joriy etish alohida ta'kidlanmoqda. Xususan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy hisobotlarni shaffof yuritish va pul oqimlari tahlilini asosiy baholash mezon sifatida qabul qilishga alohida urg'u berilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan ko'plab xususiy va davlat korxonalari pul oqimlari hisobotini tayyorlashni boshladi. Bu esa korxonalarning moliyaviy xatti-harakatlarini aniqroq tahlil qilish, salbiy oqibatlarini oldindan prognozlash va investitsiya jalb etish salohiyatini oshirish imkonini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2022). *Fundamentals of Financial Management* (16th ed.). Cengage Learning.
2. White, G. I., Sondhi, A. C., & Fried, D. (2003). *The Analysis and Use of Financial Statements* (3rd ed.). Wiley.
3. Berk, J., & DeMarzo, P. (2020). *Corporate Finance* (5th ed.). Pearson Education.
4. Schmidgall, R. S. (2016). *Financial Management for Hospitality Decision Makers*. American Hotel & Lodging Educational Institute.
5. Abidov, D. (2023). *Korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar*. Tashkent: Innovatsiya nashriyoti, 120 b.

INGLIZCHA KOLLOKATSIYALARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI (JON GRINNING "YULDUZLAR AYBDOR" ROMANI
MISOLIDA)

Alixodjayev Shoxruxbek Xabibulla O'g'li

Gmail: shokhrukhxabibullayevich@gmail.com

+998916019977

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi kollokatsiyalarning lingvomadaniy xususiyatlari Jon Grinning "Yulduzlar aybdor" romani misolida tahlil qilinadi. Kollokatsiyalar – bu odatda birga ishlatiladigan soʻz birikmalari boʻlib, ular nafaqat semantik maʼno, balki madaniy qadriyatlar, tarixiy kontekst va milliy oʻziga xosliklarni ham ifodalaydi. Roman matnida uchraydigan "Okay? Okay." yoki "The world is not a wish-granting factory" kabi iboralar oʻzida chuqur madaniy va hissiy maʼnolarni mujassam etgan. Maqolada bu iboralar tahlil qilinarkan, ularning tarjima jarayonidagi oʻrni ham yoritiladi. Xulosa sifatida, kollokatsiyalarni lingvomadaniy yondashuv orqali oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki tarjima nazariyasi va chet tilini oʻrganishda ham muhim ahamiyatga ega ekani taʼkidlanadi.

Kalit soʻzlar: kollokatsiyalar, lingvomadaniyat, Jon Grin, metafora, tarjima, frazeologiya, idiomalar, madaniyat, kontekst, semantika, ingliz tili, adabiyot, muloqot

Kirish: Til insoniyat madaniyatining ajralmas qismi boʻlib, u orqali jamiyatning madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlari ifodalanadi. Ingliz tilida keng qoʻllaniladigan kollokatsiyalar (yaʼni, muayyan soʻzlarning birgalikda ishlatilishi) tilning lingvomadaniy xususiyatlarini oʻrganishda muhim vosita hisoblanadi. Kollokatsiya lingvistik tushuncha sifatida ikki yoki undan ortiq soʻzning doimiy va odatiy ravishda birgalikda ishlatilishini anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi "make a decision" va "do homework" kabi iboralar odatiy kollokatsiyalardir. Bu iboralar boshqa soʻz birikmalari bilan almashtirilganda, masalan, "do a decision" yoki "make homework", gʻalati yoki grammatik jihatdan notoʻgʻri boʻlib tuyuladi. Kollokatsiyalar odatda intuitiv ravishda oʻrganiladi va ular grammatika qoidalariga tayanishdan koʻra amaliy tajribaga asoslanadi.

Asosiy qism: Ingliz tilidagi kollokatsiyalar koʻpincha inglizcha madaniyat va turmush tarzi bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, "break the ice" iborasi tanishuv yoki muloqotni boshlash

uchun foydalaniladi va bu ibora ingliz jamiyatidagi ijtimoiy muomala me'yorlarini aks ettiradi. Bu kabi iboralar o'sha jamiyatning kommunikativ ustuvorliklarini ochib beradi.

Ingliz tilida foydalaniladigan ko'plab kollokatsiyalar tabiiy muhit yoki tarixiy jarayonlar bilan bog'liq. Masalan, "spill the beans" (sirni oshkor qilish) iborasi tarixiy ildizlarga ega bo'lib, qadimgi davrlardagi ovoz berish jarayonlariga ishora qiladi. Shuningdek, "hit the hay" (uxlash uchun yotmoq) kabi iboralar agrar jamiyat turmush tarzi bilan bog'liqdir.

Ba'zi kollokatsiyalar milliy an'analar va urf-odatlarini ifodalaydi. Masalan, "keep a stiff upper lip" iborasi inglizlarning qiyinchiliklarga bardoshli va sovuqqon munosabatini ko'rsatadi. "A piece of cake" (o'ta oson ish) kabi iboralar esa inglizcha hazil va quvnoq turmush tarzining aksidir.

Turli madaniyatlarda o'xshash tushunchalar uchun turli kollokatsiyalar ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi "time flies" (vaqt tez o'tadi) iborasi vaqtni qushga qiyoslaydi, boshqa madaniyatlarda esa vaqtni suvga yoki shamolga o'xshatish mumkin.

Kollokatsiyalarni matnlar va real hayotiy kontekstlarda o'rganish ularni yaxshi tushunishga yordam beradi. Film, kitob va podkastlarni tinglash orqali ularni tabiiy ravishda o'zlashtirish mumkin.

Maxsus lug'atlar orqali eng keng tarqalgan kollokatsiyalarni o'rganish chet tilini o'rganayotgan shaxsga katta foyda keltiradi. Kollokatsiyalarni o'rganishda yozma va og'zaki mashqlar muhim ahamiyatga ega. Til o'rganuvchilar uchun maxsus tayyorlangan topshiriqlar va interaktiv dasturlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlash mumkin.

Kollokatsiyalarni o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki chet tilini o'rganayotganlar uchun ham muhimdir. To'g'ri kollokatsiyalardan foydalanish tilni yanada tabiiyroq va ravonroq qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, kollokatsiyalarni o'rganish til o'rganayotgan shaxsning o'sha til madaniyatini chuqurroq tushunishiga imkon beradi. Ular orqali tinglovchi yoki o'quvchi ma'lumotni yanada aniq va samarali qabul qiladi.

Ingliz tilidagi kollokatsiyalar nafaqat lingvistik balki lingvomadaniy hodisa sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ular orqali madaniy qadriyatlar, tarixiy voqealar va milliy o'ziga xosliklar ifodalanadi. Shu sababli, kollokatsiyalarni lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganish tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun muhim yo'nalishlardan biridir. Kelgusida kollokatsiyalarni yanada chuqur o'rganish uchun madaniyatlararo taqqoslash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, har bir xalq madaniyatida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular madaniyatlararo tafovutlarni, ya'ni farqli jihatlarni namoyon etadi hamda tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchiliklar tug'diradi. Jon Grinningning "Yulduzlar aybdor" (The Fault in Our Stars) romani zamonaviy adabiyotning yorqin namunalari qatoriga kiradi. Ushbu asar nafaqat sevgi va o'lim kabi abadiy mavzularni aks ettiradi, balki ingliz tilidagi lingvistik va madaniy xususiyatlarning boyligini ham ko'rsatadi. Roman kollokatsiyalar, ya'ni so'zlarning odatiy birikmalari orqali muhim semantik yukni yetkazadi. Biz roman kontekstida ishlatilgan kollokatsiyalarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilishga va ularning madaniyat, his-tuyg'ular, va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini ochib berishga harakat qilamiz.

Kollokatsiyalar – bu so'zlarning tabiiy birikmalari bo'lib, ular birgalikda ishlatilganda ma'lum bir konnotatsiyani hosil qiladi. Masalan, ingliz tilidagi "make a decision"¹ iborasi o'zbek tilida "qaror qabul qilish" deb tarjima qilinadi, lekin bu iborani "do a decision" shaklida ishlatish noto'g'ri hisoblanadi. Kollokatsiyalar nafaqat tilning semantik jihatlarni, balki madaniy qadriyatlarni ham aks ettiradi.

Jon Grinning romanida ishlatilgan kollokatsiyalar bir qator madaniy va lingvistik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan. Bu iboralar personajlarning hissiy holatlarini, dunyoqarashlarini va jamiyatning hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Jon Grinningning "Yulduzlar aybdor" (The Fault in Our Stars) romanidagi inglizcha kollokatsiyalarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish, asarda ishlatilgan iboralarning madaniy kontekstini, ularning til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqligini tushunishga yordam beradi. Quyida ba'zi kollokatsiyalar va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini misollar bilan tahlil qilamiz:

1. "Okay? Okay."²

Tavsif: Ushbu ibora asarda Augustus va Hazel o'rtasidagi muloqotda muhim rol o'ynaydi. "Okay? Okay." iborasi ularning sevgi va sadoqat ramziga aylanadi.

Lingvomadaniy tahlil: Ingliz tilidagi "okay" so'zi qisqalik va soddalik bilan bir-birini tushunishni va rozi bo'lishni anglatadi. Bu ibora ingliz madaniyatidagi muloqotda qisqa, aniq va hissiy jihatdan qulay ifodani qadrlashni aks ettiradi.

Kontekst: Roman davomida bu kollokatsiya ularning sevgi hikoyasini yodda qolarli va hissiy jihatdan kuchli qilgan belgiga aylanadi.

¹ Green J. The Fault in Our Stars. New York: Penguin Group. – 2012. – 158 p.

² Green J. The Fault in Our Stars. New York: Penguin Group. – 2012. – 129 p.

2. "Some infinities are bigger than other infinities."³

Tavsif: Matematik metafora shaklida bo'lgan ushbu ibora Hazelning dunyoqarashini ifodalaydi. U cheksizlik tushunchasini hissiy va falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadi.

Lingvomadaniy tahlil: Ingliz madaniyatida ilmiy va abstrakt tushunchalarni kundalik hayotdagi tuyg'ularni ifodalashda ishlatish keng tarqalgan. Bu ibora ilm-fan va his-tuyg'ularning uyg'unligini ko'rsatadi.

Misol: Hazel cheksizlik haqida gapirarkan, bu inson hayoti qisqaligiga qaramay, unda katta qiymat va ma'no borligini ta'kidlaydi.

3. "The world is not a wish-granting factory."⁴

Tavsif: Bu ibora Augustusning hayot haqidagi kinoyaviy mulohazasi sifatida aytiladi.

Lingvomadaniy tahlil: Bu ibora ingliz tilidagi amaliy hayotiylikni aks ettiradi. G'arb madaniyatida hayotni real qabul qilish, undagi qiyinchiliklarni tan olish va idealizmdan uzoqlashish ko'pincha qadrlanadi.

Kontekst: Ushbu ibora inson hayotining murakkabligini va hamma istaklar ham amalga oshmasligini eslatadi.

4. "Funeral for the living."⁵

Tavsif: Augustus Hazel uchun o'zining tirikligida "janoza marosimi" tashkil qiladi.

Lingvomadaniy tahlil: G'arb madaniyatida o'lim va uning atrofidagi ritualar muhim o'rin tutadi. Bu ibora marosimning yangi va noan'anaviy talqinini ko'rsatadi, bunda o'limga nisbatan hissiy tayyorgarlik ko'zda tutiladi.

Kontekst: Ushbu g'oya asarda yashash va o'lishning hissiy tomoni haqida chuqur fikr yuritishni ta'minlaydi.

Xulosa: Badiiy tarjimada lingvomadaniy yondashuv to'g'risida so'z borganda, birinchi o'rinda asl matnni tarjima matniga imkon qadar to'liq va to'kis holatda tarjima qilishni aytamiz. Ammo har qanday matnning lingvistik o'ziga xosligi bo'ladi. Agar tarjimon bu uslub va yo'nalishlarni tarjimada qo'llay olmasa, tarjimada muqobilik saqlanmaydi va bu tarjimonning o'z ijodiy ishiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham tarjimonlar matnlarni to'liq tarjima metodlari va uslublaridan foydalangan holda tarjima qilishlari kerak. Chunki lingvomadaniyatning o'rni badiiy tarjimada nihoyatda beqiyosdir. Umuman,

³ Green J. The Fault in Our Stars. New York: Penguin Group. – 2012. – 96 p.

⁴ Green J. The Fault in Our Stars. New York: Penguin Group. – 2012. – 88 p.

⁵ Green J. The Fault in Our Stars. New York: Penguin Group. – 2012. – 118 p.

lingvomadaniyatga xos ko'nikma va bilimlarsiz tarjimon kutgan natijaga erisha olmaydi. Bu tabiiy. Lekin badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini hisobga olish tarjimadagi muvaffaqiyat uchun zarurdir. Tarjimonlar madaniyatlararo ko'prik yaratishda asosiy rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat so'zlarni, balki madaniy tushunchalarni ham o'tkazadi. Tarjimadagi muvaffaqiyat, leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini to'g'ri tushunish va ularni moslashtirishga bog'liqdir.

Jon Grinning romanidagi kollokatsiyalar ingliz tilining lingvistik va madaniy xususiyatlarini chuqur aks ettiradi. Bu iboralar orqali muallif o'quvchilarni sevgi, hayot va o'lim kabi universal mavzularda o'ylashga undaydi. Kollokatsiyalarning madaniy jihatlari ularning hissiy ta'sirini oshiradi va global miqyosdagi o'quvchilarga yaqin qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. МШ Бахриддинова. Роль художественного текста в обучении иностранному языку как источника культурной информации. Хорижий лингвистика ва lingvodidaktika Foreign Linguistics and ..., 2023
2. OG Ulashevna. A Brief History of Study of Kinship Terms. AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education 2, 91-93, 2024
3. ХУ Абсаламов. Ingliz tilida yozma nutq kompetentsiyasining tadqiqi. Международный журнал искусство слова 6 (4), 2023
4. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating. Brill Academic Publishers, 1964. 331 p.
5. OG Ulashevna. Classification of uzbek kinship terms. International scientific and practical conference proceeding. Exploring ..., 2024
6. Toury, Gideon. Descriptive Translation Studies and Beyond. John Benjamins Publishing, 1995. 368 p.
7. GU Ochilova. Teaching vocabulary to English for specific purposes (esp) students using communicative language teaching. Colloquium-journal, 57-58, 2021
8. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 1992. 328 p.
9. Shunnaq, Abdullah. Issues in Arabic-English Translation with Reference to Collocations and Idioms. Jordan University Press, 1993. 245 p.
10. ZBM Gulnora Ulashevna Ochilova. The importance of teaching and learning vocabulary. International Scientific Research Journal (WoS), 1029-1033, 2022

11. AK Uchkunovich. Mastering the art of writing: skills, strategies, and success. Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific ..., 2023
12. MS Bakhriddinova. Трудности интерпретации культурно-специфических слов при переводе художественного текста лингвокультурологического содержания». International scientific and practical conference "Philology, Methodology ..., 2024
13. OG Ulashevna. About the classification of kinship terms. International Conference humanistic role of language and literature in the ..., 2024.
14. Sadikova, B. (2024, November). Antinomy and Correlation in Italian Paremiology: Semantic Analysis. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 124-126).
15. Nizomiddinova, S. N., & Maxmurovna, S. B. (2025). Lexical and semantic analysis of antonymic correlated Italian proverbs on friendship and love. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 3(3), 21-25.

IMPACTFUL TOPICS IN AGRICULTURAL FOOD PROCESSING

Egamnazarova Aziza Ernazar qizi

Student of Gulistan State University

Email: egamnazarovaaziza17@gmail.com

Phone: +998915002902

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-1230-3005>

Gaffarova Sarvinoz Muzaffar qizi –

Student of Masters degree at Gulistan State University faculty of the Economics

Turaeva Gulizaxro

PhD, Senior Lecturer of Gulistan State University, Uzbekistan

(Abstract)

The role and importance of the agricultural sector in ensuring the food security of the population on a global scale is increasing day by day. Wheat, in particular, is one of the most common cereal crops. Wheat bread is highly valued for its taste, richness and digestibility, the use of available resources and opportunities in our country to ensure a guaranteed supply of agricultural products, further increase productivity and interest in the implementation of scientific advances and modern approaches in the field is a pressing problem.

(Key words): grain and grain products, grain production, yield, efficiency, grain independence, agrotechnology.

Introduction

Ensuring the stability of grain production is the driving force behind much of the country's economic system. More than half of the nations of the world use wheat bread for food. In the strategy of agricultural development of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030,

the average yield of goat grain by 2025 should be brought to 70 tce/ha. it is planned to reach 75 tce/ha by 2030 [1]. In irrigated conditions, each province has different soil and climatic conditions depending on its geographical location and regions. In addition, a set of new agro-technological measures applied to new promising varieties will be developed based on the natural conditions of the area and recommended for use by cereal growers in the near future [2,3].

Analysis and results

The multifaceted linkages between grain production and economic sectors help to underline that sustainable grain production is the basis for ensuring the stability of all agricultural production and the commodity market. Sustainable grain production has significant potential for the development of a large part of the country's economic system. At the same time, considering questions of definition of scientific category "Stability of grain production", peculiarities of structure of production-economic potential of grain production, cycles of economic development of grain production, influence of weather and climate change conditions of released Development of climatic conditions and long-term scenarios of providing stability of grain production remain understudied. At the same time fast changing economic and technological conditions of agriculture, instability of grain growing require yes. Economic growth in the grain industry is expressed by growth of gross grain production, both in physical terms and per capita, which is stable in dynamics[4,5].

TABLE 1: Cereal and legume crops cultivated on farms of all categories in the Republic of Uzbekistan[1]

Type of products	Unit of measurement	2017	2018	2019	2020	2021
1	2	3	4	5	6	7
Cereals and legumes, total	thousand tons	7 288,5	6 535,5	7 437,8	7 636,0	7 634,6
including:	x	x	x	x	x	x
Wheat	thousand tons	6 079,2	5 410,8	6 093,5	6 157,8	5 984,8

Barley	thousand tons	134,3	111,8	133,5	161,5	95,8
Rye	thousand tons	-	0,7	0,8	5,2	3,8
Corn for grain	thousand tons	389,4	413,2	421,3	475,3	590,0
Corghum	thousand tons	-	21,1	14,7	19,0	22,1
Millet	thousand tons	-	54,5	104,3	99,1	99,8

[1]_Compiled by the author on the basis of information from STAT.uz.

In this connection in order to provide population with wheat and flour products in 2022 on 1 million 27 thousand hectares of lands in republic it is planned to grow 7 million 679 thousand in June-July of this year. [6].

Conclusions and recommendations (Conclusion/Recommendation)

Grain is one of the most common cereal crops. The multifaceted links between cereal production and the branches of the economy allow us to underline that sustainable cereal production is the basis for the stability of the whole agricultural production and the commodity market. Sustainable grain production has considerable potential for the development of a large part of a country's economic system. More than half of the world's population uses wheat bread for food. Wheat bread is high in protein and starch, and its protein component consists mainly of gluten, which is why it is used to bake quality bread.[7]

I can make the following additional suggestions for the sustainability of grain production.

- Increase the number of mills;
- to expand the area of grain cultivation and increase the yield;
- introducing a system of reimbursement of transport costs for the delivery of flour and flour products to remote settlements;
- ensuring price stability.

References

1. **Presidential Decree No. PF-5853 of 23.10.2019.**
2. **Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, PP-10 of 15.11.2021.**
3. Turayeva, G. (2023). The significance of sustainability of grain production in the consumer basket. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 01019). EDP Sciences.
4. Gulizahro, T. (2023). The importance of developing the exchange mechanism and online trade in the E-commerce system (in the example of grain trade). *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (2), 14-20.
5. Daminova K. M. et al. Evaluation of prodromal stage biomarkers in parkinson's disease and their role in disease progression use of modern digital technologies //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 408-411.
6. Qaxxorovna T. G. et al. The Impact of Artificial Intelligence on the Economy //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 1041-1045.
7. Тураева, Г. К. (2024). АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЗЕРНА В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 1387-1394..
8. AZAMATOV, Z., Akbarova, N. A., Redkorechev, V. I., & Khusainov, I. A. (2014). The hybrid holographic concentrator of solar energy. *Uzbekiston Fizika Zhurnali*, 16(5), 347-352.
9. Sharipov, K., Abdullaeva, S., Khalilov, S., & Xadjibayev, A. (2025). Analysis of the effectiveness of hydrocarbon vapor condensation. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1287-1291.
10. Азаматов, З. Т., Редкоречев, В. И., Абдурахманов, К. П., Кулагин, И. А., & Акбарова, Н. А. (2016). Лазерная интроскопия кремниевых пластин. In *Голография. Наука и практика* (pp. 405-408).

ELEKTRON HUKUMAT INTERAKTIV XIZMAT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

**Ergashev Muxriddin Abduxakim o‘gli,
Abdukarimov Jaloliddin Xusniddin O‘gli**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali talabalari

ergashevmuxriddin617@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron hukumat tizmidan foydalanishni tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari haqida ma’lumot berilgan. Elektron hukumat tizmining tarkibiy elementlari va ularni tartibga solishning mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: elektron hukumat, davlat organlari, elektron hujjat, elektron hujjat aylanishi, raqamlashtirish, inson huquqlari.

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, xalq xo‘jaligining barcha jabhalariga integratsiya qilish masalasi – barcha sohalar uchun o‘ta dolzarb va muhim vazifadir.

Tez taraqqiy etib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan “Elektron hukumat” tizimini yaratish, uning barcha imkoniyatlarini ijtimoiy va iqtisodiy, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, kommunal sohalarda amaliyotga tatbiq etish – xalq manfaatlariga xizmat qilishi, mehnat samaradorligi va sifat, qurilayotgan jamiyat uchun yangi imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Ta’kidlash zarurki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan jamiyat taraqqiyoti poydevorini qurish, uni takomillashtirib borish asoslarini ta’minlab berish maqsadida, Prezidentimiz tomonidan bugungi kunga qadar tasdiqlangan bir qator qaror va farmonlar – mazkur sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarning izchil mexanizmini yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi aholisining hammasi ham bu haqda to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmasa-da, vaqt o‘tishi bilan ushbu tizim jamiyat hayotining butun jabhasini qamrab olishini dunyo tajribasi ko‘rsatmoqda. Turli idoralar axborot tizimlari o‘rtasida elektron hamkorlikka o‘tilishi aynan elektron hukumatning shakllanish jarayoni

sanaladi. Ushbu jarayonning markazida davlat organi emas, aynan foydalanuvchi turmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlarining maqsadi - davlat boshqaruvining barcha pog‘onalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, xujjatlarni elektronlashtirish, milliy axborot segmentini rivojlantirish, xodimlar va aholiga keng miqyosda qulay interaktiv xizmatlarni ko‘rsatish, axborot xafvsizligini ta‘minlash, barcha xududlarni simli va simsiz kommunikatsiya tarmog‘iga ulash, ma‘lumotlar integratsiyasini ta‘minlashni qo‘llab quvvatlash va amaliyotga keng joriy etish bo‘lib hisoblanadi.

“Elektron hukumat” ning yakuniy maqsadi interaktiv xizmatlarini taqdim etishning imkoniyatlarini yanada yaxshilashga qodir bo‘lgan mukammal elektron davlat boshqaruv apparatini yaratishdan iborat.

“Elektron hukumat” joriy etilgach, davlat organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligi ancha ortadi, davlat organlari xizmatlaridan foydalanish kengayadi va osonlashadi, ularni alohida fuqarolarga taqdim etish imkoniyati vujudga keladi, fuqarolarni siyosiy jarayonlarga va davlat boshqaruviga jalb etish imkoniyati yuzaga keladi, axborotlardan foydalanish va ularni almashish tezlashadi, davlat xizmatlarini aholi va biznes vakillariga taqdim etish optimallasadi, fuqarolarni o‘z-o‘ziga xizmat qilish imkoniyati paydo bo‘ladi, shu bilan birga, barcha foydalanuvchilarga davlat xizmatlarini taqdim etish bilan bog‘liq boshqa afzalliklar va qulayliklar taqdim etiladi [1].

Mamlakatimizda milliy axborot tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari hamda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, elektron hukumatni shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron hukumatni shakllantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi, “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

SHuningdek hukumat portalida, Vazirliklar, Agentlik va boshqa Davlat organlarining saytlariga havolalar, ularning manzillari, aloqa shakllari va mas‘ul shaxslarining qabul

kunlari batafsil yoritilgan. Hukumat portali orqali bir tomonlama axborot taqdim qilish, qonunchilik manbalari bilan tanishtirish shaklidan, ikki tomonlama, ya'ni, haqiqiy interaktiv xizmat shakliga o'tish jarayonida birinchilardan bo'lib Davlat soliq inspeksiyasiboshlab berdi.

Hukumat portalida interaktiv davlat xizmatlarining soni ortib, ular sifat jihatdan ham takomillashib bordi. Keyingi davrda har bir davlat idorasi, tashkiloti, muassasa va boshqa tuzilmalarning, mahalliy hokimiyatlarning rasmiy veb-saytlarida alohida interaktiv xizmatlar bo'limi tashkil etildi. Biroq, bu holatning bitta noqulaylik tarafi mavjud edi: ular tarqoq holda bo'lib, har bir muassasaga murojaat etishda, uning sayti saytidan foydalanish, agar murojaatni ko'rib chiqishda boshqa muassasaning ham ishtiroki talab qilinsa, bunda murojaat etuvchi fuqaro, ikkinchi muassasaga ham alohida murojaat bilan chiqishi kerak edi.

O'zbekistonda ham dunyoning boshqa mamlakatlari kabi elektron hukumatni shakllantirish va joriy etishga katta e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilishva rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-son qarori hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan "2012–2014-yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish varivojlantirish dasturi"ni amalga oshirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ushbu qarorda 2012–2014-yillar mobaynida O'zbekistonda AKT sohasini, shu jumladan "elektron hukumat"ni rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-son qarori respublikamizda elektron hukumatni joriy etish va yanada rivojlantirish yo'lida muhim turtki bo'ldi. Mazkur qaror bilan mamlakatimizda "elektron hukumat" tizimini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha bir qator loyihalar va chora-tadbirlar belgilandi, ularni amalga oshirish mexanizmlari va muddatlari aniqlandi. Shu bilan birga, Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirishning Kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi tashkil qilindi. Bundan tashqari, davlat organlarining oldiga ularning funktsiya va vazifalarini operativ va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida axborot tizimlarini yaratish va o'zaro integratsiya qilish, davlat organlari faoliyatini avtomatlashtirish kabi bir qator muhim masalalar qo'yildi. Shuningdek, yuqoridagi hujjatga asosan O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish

va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi qoshida 2 ta yangi markaz – "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazlarini tashkil etildi. Ushbu markazlar oldiga mamlakatimiz axborot resurslari, tizim va tarmoqlarini jadal rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlashdek muhim maqsad va vazifalari qo'yildi.

Elektron hukumat bu – raqamli texnologiyalar, Internet va zamonaviy ommaviy axborot vositalari asosida davlat xizmatlarini taqdim qilish jarayonini, fuqarolarni va boshqaruvni ichki va tashqi o'zaro munosabatlarda o'zgartirishlar vositasida ishtirokini doimiy optimallashtirishdir. Elektron hukumat aholiga, tadbirkorlarga va davlat organlariga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarini taqdim qilishni osonlashtiradi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, ularning texnologik yangiliklardan xabardorligini oshiradi va davlat boshqaruvidagi ishtirokini osonlashtiradi [4].

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi faoliyati mamlakatimizda davlatning aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Davlat organlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va birlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan ushbu tizimni shakllantirishga yagona texnologik yondashuvni ta'minlaydigan mazkur markaz bu boradagi jahon tendensiyalari hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil va tadqiq etadi, elektron hukumat tizimini rivojlantirish jarayonida tadbirkorlik subyektlari va aholiga vaqt va mablag'ni tejagan holda sifatli davlat xizmatlari ko'rsatish, yangi-yangi xizmatlarni elektron ko'rinishga o'tkazish kabi vaziflarni hal etadi [5].

Elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi [6].

Elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot [7].

Elektron raqamli imzo – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi

axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo [8].

Elektron hujjat aylanishi – elektron hujjat aylanishi elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisidan iborat bo'ladi. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar tuzish (shu jumladan shartnomalar tuzish), hisobkitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotni uzatishda foydalanish mumkin [9].

Davlat xizmati – ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat. Agar qonunchilikka muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular ham davlat xizmatini ko'rsatishlari mumkin [10].

Ochiq ma'lumotlar portali ishga tushirishdan ko'zlangan asosiy maqsad – davlatning barqaror rivojlanishida hukumat va aholining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zaro hamkorlik, axborot-ma'lumot almashish imkoniyatlaridan unumli foydalanishni taqozo etadi. Axborot, birinchi navbatda, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi bilimdir. Shuning uchun ham davlat faoliyatiga oid barcha ma'lumotlar aholi turmush tarzida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ma'lumotlarning cheklanmagan miqdorda taqdim etilishi xalqqa uning ichidan kerakli bilimlarni ajratib olish va jarayonlarga nisbatan munosabatini shakllantirish, ijtimoiy hayotga kirishish imkonini beradi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, aholi uchun zarur ma'lumotlarni ularga o'z vaqtida taqdim qilmaslik va aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirmaslik jamiyat rivojiga juda katta salbiy ta'siri o'tkazib, oqibatda "axborot taqchilligi" jamiyatning inqiroziga sabab bo'lishi mumkin. Ayni shu omil – Ochiq ma'lumotlar portali ishga tushirilishiga sabab bo'ldi.

"Ochiq ma'lumot" – bu, bir qarashda hammasi tushunarli, foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumot.

Ochiq ma'lumotlar portalida ko'p marotaba, erkin va bepul foydalanish maqsadida mashinada o'qiladigan formatda internet tarmog'ida joylashtirilgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi axborot joylashtiriladi.

Yagona portalda tadbirkorlik subyektlari va aholi uchun yil boshidan 30 ta yangi xizmat va servislar ishga tushirildi. Hozirda foydalanuvchilar, asosan tadbirkorlik subyektlari Yagona portal orqali quyidagi xizmatlardan foydalanishlari mumkin:

- tekshirishlar reja-jadvalidan elektron ko‘chirma olish;
- tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axbort tizimida tashqi savdo shartnomalari bo‘yicha ma‘lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish;
- tadbirkorlik subyektlari uchun ularni gaz ta‘minlash tarmoqlariga ulanishlari uchun texnik shartlarni taqdim etish uchun arizalarni elektron ravishda taqdim etish
- “SMS-To‘lov” to‘lov tizimi orqali ba‘zi turdagi xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish;
- tadbirkorlik subyektlari uchun to‘lov terminallari bilan ta‘minlash, mahalliy avtotransport vositalarini xarid etish uchun arizalarni elektron ravishda taqdim etish;
- faoliyatning ba‘zi turlari uchun litsenziyalar va ruxsatnomalarni olish uchun arizalarni taqdim etish va hakoza [11].

Xulosa

2014-yilning 1-oktabrida Yagona portalda tadbirkorlik subyektining kabineti ishga tushirildi. Ushbu kabinet orqali tadbirkorlik subyektlari turli soliq, statistika va boshqa turdagi hisobotlarni shakllantirishlari va yuborishlari, turli to‘lovlarni amalga oshirishlari, turli ma‘lumotlarni olishlari va boshqa turdagi interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida axboratlashtirishni o‘rni oshib bormoqda. Mamlakatimiz ijroi hokimiyatida “Elektron hukumat” tizimini joriy etish va rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalarida ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbekistonda ilm-fan va ta‘lim masalalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi 1-son konferensiya materiallari <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/ views/article/files/3228/ ABDURAHMONONOVA % 20 DILDORA.pdf>
2. Elektron hukumat asoslari. Interaktiv davlat xizmatlari. URL: <https://fayllar.org/pdfview/9-mavzu-elektron-hukumat-asoslari-interaktiv-davlatxizmatlari.html>
3. O‘zbekistonda elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish holati. URL: <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekistonda-elektron-hukumatni-joriy-etish-varivojlantirish.html>

4. A.Abdiraimov / “Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamlashtirish xususiyatlari” / <https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-hukumat-va-xizmatlarsohasini-raqamlashtirish-xususiyatlari>

5. O‘zbekistonda “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirdi, URL: <https://kun.uz/uz/20595986>

6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 49-son, 611- modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 12- modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 33- son, 439- modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

8. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 49-son, 611- modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

9. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 20-son, 230- modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

10. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 49-son, 611- modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

11. O‘zbekistonda elektron hukumatni joriy etish va rivojlantirish holati <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekistonda-elektron-hukumatni-joriy-etish-varivojlantirish.html>

TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDA BA’ZI LOTINCHA ATAMALAR KELIB CHIQUISHINING METAFORIK XUSUSIYATLARI.

Mamarajabova Dilbar Allanazar qizi

Termiz iqtisodiyoti va servis universiteti talabasi

Annotatsiya: Tibbiyot terminologiyasi — ilmiy aniq va universal bo‘lishi kerak bo‘lgan til sohalaridan biridir. Shunga qaramay, uning shakllanishida ko‘plab metaforik ifodalar, obrazli tasvirlar va qadimiy dunyoqarashlar izlarini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, lotincha tibbiy atamalar ko‘p hollarda inson tanasi yoki kasallik holatlarini tasvirlashda metaforalarga tayanadi. Ushbu maqolada shunday atamalarning semantik va metaforik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Termin, terminologiya, metafora, kasallik nomlari, tibbiyot, atama,

Lotin tili — tibbiyot mutaxassisligini o‘qitishning ajralmas elementi bo‘lgan kasbiy yo‘naltirilgan fan. Tibbiy atamalar lotin tilida ishlatiladigan ko‘plab metaforalar bilan ajralib turadi. Ular atrofdagi voqelikni, uning milliy, ijtimoiy va kasbiy farqlarini his qilishning umuminsoniy qoidalarini aks ettiradi.

Tibbiyot terminologiyasi butun tibbiyot tarixi davomida yaratilgan va tibbiyot fani bilan parallel ravishda rivojlanishda davom etmoqda. Har bir mutaxassis, mutaxassisligidan qat’i nazar, doimiy ravishda yangilanib turadigan va yangi yaratilgan professional tildan to‘g‘ri foydalanishi va muayyan atamalarning paydo bo‘lishini belgilaydigan qoidalar va qonunlarni tushunishi kerak. Har qanday mamlakat tibbiyot xodimlari o‘z ona tili asosida paydo bo‘lgan atamalar bilan bir qatorda qadimgi yunon va lotin tillari asosida paydo bo‘lgan ko‘plab xalqaro, umume’tirof etilgan atamalardan foydalanadilar. Ushbu atamalar tabiatan universal bo‘lib, umumiy foydalanishga kirgan va ularning millatidan qat’i nazar, mutaxassislar uchun tushunarli. Bunday xalqaro atamalar har qanday davlatda, shu jumladan, Rossiyada hamda ispan tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda tibbiyot fanining asosiy fondini tashkil qiladi.

Tibbiyot terminologiyasida keltirilgan semantik o'zgarishlar bu borada ko'rsatkichdir. Tibbiyotda metaforik atamalarning mavjudligi, inson tanasi tuzilishining o'zi atrofdagi voqelik bilan assotsiativ aloqalarni va metaforik nomlarning paydo bo'lishiga yordam beradigan tarzda yaratilganligi bilan oqlanadi. Ma'lumki, metaforik atamalarni yaratish uchun asl ma'nodan sezilarli darajada farq qiladigan yangi semantik ma'no va aniqlikka ega bo'lishi mumkin bo'lgan obyekt va hodisalar ishlatiladi.

Tibbiy terminologiyada metaforik uzatishning odatiy rus tilidagi modellari qo'llaniladi. Taqqoslash, bu – asosan, obyektlarning vizual tavsiflaridir (konfiguratsiyasi, o'lchamlari, rang berishi).

Tibbiyot terminologiyasining metaforik tizimi an'anaviylik va dinamizmni birlashtiradi: *membrana* (oyoq-qo'llar), *palatum* (tanglay) yoki *brachium* (yelka). Kuzatishlarimizga ko'ra, tibbiy terminologiyada eng keng tarqalgani — tovush belgilariga ega bo'lgan zoomorfik metafora bo'lib, ular hayvonot dunyosiga xos bo'lib, shartli ravishda odamning jismoniy holatiga o'tadi va turli alomatlar va kasalliklar tavsifida uchraydi: *sichqonning chiyillashi*, *xirillashi*, *mushuk yig'lash sindromi* va boshqalar. Qushlar, yashash joylari va hasharotlar nomlari ham tibbiyot terminologiyasida keng assotsiativ sferaga ega: *g'oz terisi*, *qush yuzi*, *baliq og'zi* va boshqalar. Taqdim etilgan metaforalar yangi ma'no kasb etadi. Keyingi guruh antropomorfik metafora bo'lib, uning manbayi – odamlarning fiziologik xususiyatlari, tana a'zolarining nomlari va tirik organizmning xususiyatlari. Antropomorfik metaforalarga individ tanasining qismlari va hayvonlar tanasining, ularning ichki a'zolarining nomlarini aks ettiruvchi atamalar kiradi: *laringeal qorincha*, egarning orqa qismi va boshqalar.

Metafora va tibbiy til o'rtasidagi bog'liqlik

Tibbiyotda metaforalar — murakkab biologik jarayonlarni sodda, tushunarli obrazlar

Metafora orqali ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lotin tili — tibbiyot terminologiyasining asosi bo'lib, unda ko'plab metaforik atamalar mavjud.

Misollar orqali metaforik atamalarning tahlili

Quyidagi lotincha tibbiy atamalar o'zining metaforik tabiati bilan ajralib turadi:

Uvula — tomoqning orqa qismidagi "mayda tilcha". Lotinchada "uvula" so'zi "kichik uzuk" degan ma'noni beradi. Bu atama shaklga o'xshatib berilgan metaforadir.

Cerebellum — miyachaning lotincha nomi, "*kichik miya*" degan ma'noni beradi. Asosiy miya bilan qiyoslanib, uning kichik o'lchami asosida metaforik nomlangan.

Caput medusae — qorin yuzasidagi qon tomirlari yulduzsimon ko'rinishda bo'lib, Meduza boshiga o'xshatilgan (yunon afsonalaridagi Meduzaning boshidan ilonlar chiqib turardi).

Lunula — tirnoqning pastki qismidagi yarimoy shaklidagi oq joy. "*Luna*" — oy degani, bu esa shaklga asoslangan metaforadir.

Aura — migrenga xos bo'lgan xayoliy "yorug'lik halqasi" yoki sezgi. Lotincha "*shamol, nurlanish*" ma'nosidan kelib chiqqan.

Sinus — burun yo'llaridagi bo'shliq, lotin tilida "*cho'mich*" yoki "*egilma joy*" ma'nosida ishlatilgan.

Ischiadicus (nervus ischiadicus) — katta asab bo'lib, bu so'z yunoncha *ischion* – "son suyagi" degan ma'nodan kelib chiqqan, metaforik jihatdan suyak asosida nomlangan.

Metafora orqali tibbiy bilimlarni oddiylashtirish

Metafora nafaqat estetik, balki didaktik ahamiyatga ham ega. Bu atamalar orqali murakkab anatomik tuzilmalar talabalarga esda qolarli tarzda yetkaziladi.

Xulosa

Lotincha tibbiy atamalar metaforik xususiyatga ega bo'lib, ularning ko'pchiligi shakl, funksional o'xshashlik yoki qadimiy tasavvurlar asosida nomlangan. Bu atamalar nafaqat ilmiy ifoda, balki tarixiy-madaniy yodgorlik sifatida ham qadrlanadi. Tibbiy terminologiyada metaforik nomlar — bilim uzatish va tushunishni osonlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Woywodt, A. Should eponyms be abandoned? Yes/ A. Woywodt, E. Matteson// BMJ. – 2007. Vol. 335. – P. 424-425. doi: 10.1136/b.inj.39308.342639. AD.
2. Crystal, D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics 6th Ed. - Willey: Blackwell Publishing Ltd., 2008. - 529 p.

3. Besa, E.C. Hematology/ E.C. Besa, P.M. Catalano, I.A. Kant, L.C. lefferies. - Baltimore: Harwal Publishing, –1992. – 335 p.
4. Druganova B. English Medical terminology - different ways of forming medical terms // JAHR. -2013. Vol. 4., № 7. – P.55-69.
5. Chabner, D. E. The Language of Medicine. - New York: W. B. Saunders Company, 1996. – 1036 p.
6. Киселева Л.А. Терминосистема области медицины «Акушерство» // Вестник Калмыцкого университета. – 2017. – № 1(33). – С.76-81.

O'QITUVCHINING NUTQ TEXNIKASI VA NOTIQLIK MADANIYATI .

Bazarbayeva Dinara Borisovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Akusherlik va Ginekologiya yo`nalishi
1-kurs magistri

Olimova Dano Shakirovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali P.f.n., dotsent

Annotatsiya Ushbu maqolada o'qituvchilarning nutq mahorati, uning samaradorligi, nutqning psixologik va pedagogik jihatlari, shuningdek, notiqlik madaniyatining asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi. Maqolada nutqning aniqligi, ravonligi, ohangdoshligi, shuningdek, auditoriyaga ta'sir o'tkazish usullari haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ham keltirilgan. Maqola o'qituvchilar, talabalar va nutq madaniyati sohasiga qiziqish bildiradigan barcha uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar:O'qituvchi nutqi,Nutq texnikasi,Notiqlik madaniyati,Pedagogik nutq,Nutqning aniqligi,Nutqning ravonligi,Auditoriyaga ta'sir,Nutq madaniyati.

Kirish

O'qituvchining nutqi – bu nafaqat bilimlarni yetkazish vositasi, balki shaxsiy va professional madaniyatning muhim ko'rsatkichidir. Nutq orqali o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat ma'lumotlarni yetkazadi, balki ularga ma'naviy, axloqiy va intellektual jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchilarning nutq texnikasi va notiqlik madaniyatini rivojlantirish ularning pedagogik faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o'qituvchilarning nutq mahorati, uning samaradorligi, nutqning psixologik va pedagogik jihatlari, shuningdek, notiqlik madaniyatining asosiy tamoyillari keng yoritiladi.

Nutq Texnikasining Ahamiyati

Nutq texnikasi – bu nutqning texnik jihatdan to'g'ri va samarali bajarilishi. O'qituvchi nutqi aniq, ravon va ohangdor bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchilarning diqqatini jamlash, ularning qiziqishini uyg'otish va ma'lumotni yaxshi o'zlashtirish uchun zarur. Nutq texnikasiga quyidagi jihatlar kiradi:

- **Tovushlarning to'g'ri talaffuzi** – har bir so'z aniq va ravshan eshitilishi kerak.
- **Nutqning tezligi** – nutq juda sekin yoki juda tez bo'lsa, auditoriyaning diqqati so'rilishi mumkin.
- **Ovoz balandligi** – ovoz balandligi xonaning hajmiga va auditoriyaning soniga mos bo'lishi kerak.
- **Pauzalar** – nutq davomida to'g'ri vaqtda pauza qo'llash nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

O'qituvchi nutq texnikasini mukammal egallaganda, u o'z bilimlarini yanada samarali tarzda yetkazishi mumkin.

Notiqlik Madaniyatining Asosiy Tamoyillari

Notiqlik madaniyati – bu nutqning mazmunan boy, usluban chiroyli va axloqiy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlovchi qoidalar majmuasi. O'qituvchi nutqining madaniy jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Mazmunning aniqligi** – nutqda fikrlar aniq va mantiqiy tarzda bayon etilishi kerak.
- **Adabiy til qoidalariga rioya qilish** – nutqda adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish zarur.
- **Auditoriyaning hisobga olish** – o'qituvchi nutqida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bilim darajasini va psixologik holatini hisobga olish kerak.

• **Axloqiy jihatlar** – nutqda hurmat, odob va halollik mavjud bo'lishi kerak. Notiqlik madaniyati shuningdek, o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini ham aks ettiradi. O'qituvchi nutqi orqali u o'quvchilarga nafaqat bilim, balki yaxshi odob-axloq ham o'rgatadi.

Nutqning Psixologik Jihatlarini

Nutq faqatgina ma'lumot yetkazish vositasi emas, balki psixologik ta'sir o'tkazish vositasi hamdir. O'qituvchi nutqi orqali u o'quvchilarga quyidagilarni ta'minlashi mumkin:

- **Diqqatni jamlash** – qiziqarli va jonli nutq o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb qiladi.
- **Motivatsiya** – nutq orqali o'quvchilarni yangi bilimlarni o'rganishga rag'batlantirish mumkin.
- **Ishonch hosil qilish** – aniq va mantiqiy nutq o'quvchilarning o'qituvchiga ishonchini oshiradi.

Shuningdek, nutqning psixologik ta'siri o'quvchilarning ruhiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yumshoq va do'stona nutq o'quvchilarda xavotirni kamaytirishi, ularni o'ziga ishongan qilishi mumkin.

Nutqning Pedagogik Jihatlarini

O'qituvchi nutqi pedagogik jarayonning muhim qismidir. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- **Bilimlarni yetkazish** – nutq orqali o'qituvchi yangi ma'lumotlarni tushuntiradi.
- **Tushunishni tekshirish** – o'qituvchi nutqi orqali o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashi mumkin.
- **Tarbiyaviy ta'sir** – nutq orqali o'quvchilarga yaxshi odob-axloq, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini targ'ib qilish mumkin.

Pedagogik nutqda muhim jihat – bu o'quvchilarning faolligini ta'minlash. O'qituvchi nutqi o'quvchilarni suhbatga jalb qilishi, ularning fikrlarini so'rashi va ularga mustaqil fikrlash imkoniyatini berishi kerak.

Nutq Madaniyatini Rivojlantirish Usullari

O'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

- **Nutq mashqlari** – ovozni mustahkamlash, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutq tezligini nazorat qilish kabi mashqlar.
- **Adabiyot bilan shug'ullanish** – badiiy va ilmiy adabiyotlarni o'qish nutqning mazmunini boyitadi.
- **Auditoriya oldida chiqishlar** – turli xil auditoriyalar oldida chiqish qilish nutq mahoratini oshiradi.
- **O'z nutqini tahlil qilish** – o'qituvchi o'z nutqini yozib olish va uni tahlil qilish orqali kamchiliklarini aniqlashi mumkin.

Xulosa

O'qituvchining nutq texnikasi va notiqlik madaniyati uning professional faoliyatining muhim qismidir. Nutqning aniqligi, ravonligi, ohangdoshligi va psixologik ta'siri o'quvchilarning bilim olish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, har bir o'qituvchi o'z nutq mahoratini doimiy ravishda rivojlantirishi, nutq madaniyatiga e'tibor berishi va pedagogik nutqning barcha jihatlarini mukammal egallashi kerak. Nutq – bu nafaqat bilim yetkazish vositasi, balki tarbiyaviy ta'sirning ham samarali usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Ochilov M., Nazarov Q.** – Pedagogik mahorat: O'qituvchining nutq madaniyati. Toshkent: O'qituvchi, 2018.

- 2 **To'xtayeva N.** – Nutq madaniyati va uning rivojlanishi. Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
3. **Qodirov S.** – O'qituvchi nutqining psixologik jihatlari. Toshkent: Fan, 2020.
4. **Xolmirzayev B.** – Pedagogik kommunikatsiya va nutq texnikasi. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. **Yusupova M.** – Notiqlik san'ati: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Akademnashr, 2021.
6. **Karimov I.A.** – Ma'naviyat va ma'rifat yo'lida: Nutq madaniyatining ahamiyati. Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
7. **Abdullayeva R.** – O'qituvchi nutqining pedagogik jihatlari. Toshkent: O'qituvchi, 2020.
8. **Toshpo'latov A.** – Nutq madaniyati va uni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston, 2019.

ИЗУЧЕНИЕ КАТИОННЫХ ПАВ В ПРОЦЕССАХ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Салихова Озода Абдуллаевна

Кандидат технических наук, доцент,

Ташкентский химико-технологический институт

E-mail: ozodaxon.salihova@gmail.com

Очень широкое применение практически во всех перечисленных процессах находят ПАВ, которые входят в состав технологических жидкостей, контактирующих с продуктивными пластами и скважинным оборудованием и непосредственно взаимодействующих с продукцией скважин.

Объемы производств катионных ПАВ (КПАВ) уступают выпуску анионоактивных и неионогенных ПАВ, что связано с меньшими объемами их применения в промышленности. КПАВ обычно используют по узкоспециальному назначению, причиной чему является недостаточная изученность их многих положительных свойств.

Поэтому целью настоящей статьи является изучение таких свойств химреагентов, которые влияют на эффективность многих процессов,

Дата поступления начиная от бурения скважин до сдачи продукции на нефтеперерабатывающие заводы. Таким образом, развивается концепция более широкого применения не арсенала улучшающих добавок, а одного универсального реагента, сочетающего в себе максимальное количество свойств, напрямую и косвенно влияющих на положительный результат. Расширение областей применения КПАВ одновременно повысит объемы производств химзаводов.

Реагенты практически одинаково растворяются в органических средах: ацетоне, изопропиловом спирте, КОР-1 и частично в толуоле. Они диспергируются после термостатирования в керосине и гексановой фракции.

Исследуемые реагенты относятся к классу ПАВ-пленкообразователей. Растворимость их в водных (пресных, солевых, кислотных) растворах можно повысить добавкой спиртов и/или ацетона.

Межфазное натяжение на границах раздела водных растворов-дисперсий

реагентов с керосином определяли по общепринятой методике на сталагмометре конструкции УфНИИ (рис. 1).




